

Abduvali Saybnazarov



КОЖАЛИ

nosidida o'lgan insoniyat

**человечность, уничтоженная
Коджалинском геноциде**

Abduvali SAYBNAZAROV

**«XOJALI GENOTSIDIDA
O'LGAN INSONIYAT»**

**«Istiqlol nuri»
Toshkent**

UO‘K: 95.32(504.1+479.2)

KBK : 63.3(A)

63.3(A)

A 14

Abduvali, Saybnazarov.

Xojali genotsidida o‘lgan insoniyat / A.Saybnazarov.-Toshkent :
«Istiqolol nuri», 2017-132b.

Taniqli siyosiy sharhlovchi, iste’dodli publitsist Abduvali Saybnazarovning mazkur risolasida zamonaviy dunyoda insoniyatga qarshi qaratilgan eng mudhish jinoyatlardan biri - Ozarbayjon Respublikasining Xo‘jayli (Xojali) shahrida arman bosqinchilari tomonidan sodir etilgan vaxshiyliklar qalamga olingan. Bu borada muallif bir necha yil davomida tadqiqot ishlarini olib borgan: ko‘plab hujjatlarni to‘plagan, ularni o‘rgangan, guvohlar bilan suhbatda bo‘lgan. Natijada arman millatchi bosqinchilari tomonidan o‘zlarining qadimiy zaminlarida osoyishta yashab kelayotgan tinch aholiga, begunoh keksalarga, norasida go‘daklarga nisbatan qo‘llanilgan ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan xunrezliklar butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘lgan.

Mazkur risola keng kitobxonlar ommasiga, shuningdek, millatlararo munosabatlar, tashqi siyosat yo‘nalishida tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar doirasiga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-4472-6-4

© A.Saybnazarov

© «Istiqolol nuri»

2017 y.

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV No 2023/32-07

KIRISH

Ushbu risolada o'quvchilar e'tiboriga Xojali genotsidi sabablari va mohiyati taqdim etiladi. Xojali qirg'ini Ozarbayjon tarixiga eng qo'rqinchli va fojiali sahifalardan biri sifatida kirdi. Ta'kidlash kerakki, 200 yil mobaynida ozarbayjon xalqi muttasil ravishda arman shovinistlari tomonidan etnik tozalash va genotsid siyosatiga uchrab keldi. Ozarbayjonliklar o'z tarixiy yerlaridan quvildi, qochoqqa va majburiy ko'chmanchiga aylandi, eng yomoni, bularning bari ommaviy qotilliklar bilan yakun topdi. Jafokash xalqni etnik-tarixiy yerlaridan quvish ishlari sovetlar davrida ham davom etdi. 1948-1953 yillarda Armanistondan 150 ming ozarbayjonlik turli bahonalar bilan deportatsiya qilindi, ular Kura-Araz pasttekisligiga joylashtirildi.

1988 yildan Tog'li Qorabog' atrofida avj olgan hodi-salar, arman mafkurachilarning «Armaniston dengizdan dengizgacha» deb nom olgan ma'nisiz g'oyani amalga oshirish urinishi qishloqlar, shaharlarning vayron bo'lishiga, o'n minglab begunoh insonlarning o'limiga, yuz minglab ozarbayjonliklarning o'z tarixiy yerlaridan quvilishiga olib keldi.

Shu munosabat bilan kitobda Xojali fojiasi tarixining dolzarb va o'tkir muammolari, qirg'in ko'lami, guvohlar hikoyasi va jahon hamjamiyati munosabati bayon qilinadi. Bu Xojali masalasiga bag'ishlangan birinchi o'zbek tilidagi kitob. Shubhasiz, risola keng jamoatchilik uchun qimmatli sanaladi, zero Xojalida ozarbayjonliklarning ommaviy o'ldirilishi mavzusi O'zbekistonda ko'pchilikka ma'lum emas.

Xojali qirg'ini Ozarbayjon xalqiga qarshi qaratilgan, o'zining mislsiz shafqatsizligi va mahv etishning noinsoniy uslublari bilan insoniyat tarixidagi eng yirik vahshiyliklardan biri hisoblanadi. Ayni paytda butun insoniyatga qarshi qaratilgan tarixiy jinoyat hamdir.

Armanlar davlati xalqaro me'yorlarda ko'zda tutilgan qonun qoidalarga zid ravishda Tog'li Qorabog'ni o'ziga qo'shib olishga, bu yo'lda har qanday jinoyat va yovuzliklardan qaytmasligini namoyon etishga urinmoqda. XX asrning

fojiasi sanalmish Xojali genotsidi armanlarning agressiv va jinoiy siyosatining natijasidir. Bugun ko'plab siyosatdonlar va kuzatuvchilar Xojali qirg'inini Xatin, Xirosima, Nagasaki, Songmi kabi fojialar bilan bir safda tilga olishayotgani bejiz emas.

Xojali tumani Ozarbayjonning tog'li, Qorabog' viloyatida joylashgan. U Ozarbayjon SSR tarkibiga kirgan sobiq Tog'li-Qorabog' muxtor viloyatining bir qismi bo'lib, 1991 yilning 26 noyabrida tugatilgan. Muxtor viloyat Armaniston SSRning hududiy e'tirozlariga javoban tuzilgan sun'iy ma'muriy tuzilma bo'lgan. Armaniston mazkur hududga da'vogarlik qilgan viloyatda armanlar ko'pchilikni tashkil etishi maqsadida ma'muriy chegaralar qasddan shunday tuzilgan. Xojali ozarbayjonlar aholining ko'pchiligini tashkil etgan Tog'li Qorabog' muxtor viloyatidagi kamsonli aholi punktlaridan biri edi.

1990 yillar boshida mintaqa qurolli mojaro bilan qamrab olingandi: Armaniston Ozarbayjonga qarshi agressiv harbiy harakatlarini boshladi, bu bilan ozarbayjon hududlarini bosib olishga oid azaliy rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Mazkur rejaning markaziy qismi Tog'li Qorabog'ni Ozarbayjondan bir tomonlama ajratib olish va uni Armaniston tarkibiga qo'shib olish bo'lgan. Natijada Armaniston mazkur mintaqani, jumladan, Xojali va Ozarbayjonning boshqa yettita tumanini ishg'ol etdi. Ushbu agressiyaning oqibati sifatida urush 30 ming insonning boshiga yetdi. Bir millionga yaqin ozarbayjonliklar qochoqqa va majburiy ko'chmanchiga aylandi, minglab odamlar domdarsiz yo'qoldi. Mana oradan 25 yildan oshganiga qaramay, Armaniston davom etayotgan agressiyadan voz kechish va qo'shinlarini bosib olingan hududlardan olib chiqish niyatida emas.

Xojali – shaxidlar shahri

Xojali tumani bilan Lochin, Kalbajar, Agdam, Xojavend va Shusha tumanlari chegaradosh.

Xojali tumanida bitta shahar, Askeran posyolkasi va 50 ta qishloq o‘rnatilgan.

Qishloqlar: Almali, Garakyotuk, Ballija, Xanyurdu, Mexdibeyli, Jamilli, Chanagchi, Signag, Dagyard, Dashbulag‘, Badara, Xaneri, Gayabashi, Sunjinka, Xarov, Dagdagan, Xanabad, Aggyadik, Ashagi Gilichbag, Kosalar, Bashkend, Janxasan, Tazabina, Gishlag, Javadlar, Yalobakend, Garabulag, Damirchilar, Gushchubaba, Madatkend, Giziloba, Ashagi Yemishjan, Xachmach, Yuxari Yemishjan, Meshali, Naxchivanli, Agbulag, Aranzamin, Daxraz, Pirjamal, Pirlar, Dashbashi, Farrux, Seidbeyli, Ulubaba, Shushakend, Dashkend, Muxtar, Sardarkand, Shalva.

Jo‘g‘rofiyasi

Xojali 940 kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Mojarogacha uning aholisi 7000 kishini tashkil etgan. Xojali shahri Xankendidan 10 kilometr shimoli-sharqda, Agdam-Shusha va Askeran-Xankendi yirik yo‘llari kesishgan maskanda joylashgan. Xojalida tumandagi yagona fuqaroviy aeroport mavjud bo‘lgani sababli shahar muhim transport uzeli sanalgan. U Markaziy Osiyodan borgan mesxeti turklari va Armanistonni tark etishga majbur bo‘lgan ozarbayjonlar uchun boshpana bo‘lgan.

Tuman hududining katta qismini tog‘lar egallaydi. Eng baland cho‘qqisi – Gizgala (2843 m) va Girxgiz (2830 m). Baland tog‘li hududlarini hisobga olmaganda iqlim mo‘tadil, issiq. Baland tog‘lardagi nishabliklar maysazorlari bilan qoplangan. Asosiy daryolar – Badara va Gargar asosini ko‘proq tog‘-o‘rmon va tog‘-o‘tzorlar tashkil etadi. Hududning 40 foizi o‘rmon bilan qoplangan; o‘rmon yong‘og‘i, qora qayin, zarang daraxt, oqqayin va daraxtlarning boshqa turlari keng tarqalgan.

Xo‘sh, Xojaliga yurish uyushtirgan armanlar qanday maqsadni ko‘zlagan edi? Shaharning ahamiyati nimada? Birinchidan, shaharchada mintaqada yagona aeroport joy-

lashgandi. Uni egallash orqali butun Tog‘li Qorabog‘ ustidan nazorat o‘rnatish mumkin bo‘lardi. Boshqa tomondan, arman jangarilari qadimdan to davrimizgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida Ozarbayjon xalqining tarixiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi manzilgoh-Xojalini shunchaki butkul vayron etishni istashgan.

Tarixi va madaniyati

Askeran qo‘rg‘oni, 18-asr

Tarixiy va madaniy nuqtai nazardan Xojali Ozarbayjonning hududi hisoblanadi. U eramizdan avvalgi XIV-VII asrlarga taqaluvchi Xojali-kedabek madaniyatiga mansub. Shaharda tosh sag‘analar, mozorlar, kechki bronza va ilk temir asrlarga oid nekropollar topilgan. Xojalida shuningdek, tarixiy arxitektura yodgorliklari – aylana qabr (1356-1357 yy.) va daxma (XIV asr) mavjud. Arxeologik qazilmalar chog‘ida tosh, bronza va suyaklardan turli bezakli buyumlar, loydan yasalgan uy anjomlari topilgan. Topilgan marjonlardan birida Assariya shohi Adadnerari III (eramizdan avvalgi 807-788 yillar) ismi yozilganini isbotlashga muvaffaq bo‘lishgan.

Xojali tumanining ma‘muriy chegaralaridagi Gargar daryosining har ikki qirg‘og‘ida XVIII asrda Qorabog‘ hukmdori Panox-xon tomonidan bunyod etilgan Askeran qal‘asi joylashgan. Mayda toshli ohak qorishmasidan tarkib topgan qal‘a ikkita istehkomdan iborat. 1810 yilda qal‘ada Rossiya va Eron o‘rtasida tinchlik muzokaralari bo‘lib o‘tdi, buning evaziga mazkur inshootning tarixiy ahamiyati oshdi.

Xojali yashovchilarining asosiy mashg‘uloti bog‘dorchilik, uzumchilik, asalarichilik, chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgan. Arman bosqiniga qadar tumanda o‘nlab madaniyat muassasalari, muzeylar, o‘quv yurtlari, maktablar, poliklinika va kasalxonalar, qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari, boshqa jamoat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan. Xojalida ikkita boshlang‘ich va ikkita o‘rta maktablar, to‘qimachilik fabrikalari mavjud bo‘lgan.

Armanlar ishg‘olidan keyin barcha yodgorliklarning texnika yordamida yakson etilishi, Xojalining qabristonga aylantirilishi

insoniyat madaniyatiga qarshi qaratilgan vandalizmning yorqin ko‘rinishi desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Arman vandalizmi bu bilan cheklanmaydi.

2017 yilning yozida Ozarbayjonning Tog‘li Qoraboqqa tutash hududlarida, shu jumladan, Fizuliy tumanida bo‘lish va voqealikni o‘z ko‘zim bilan ko‘rish baxti nasib etdi. Ayniqsa, Abdurahmonli qishlog‘idagi hodisa ko‘z o‘ngimdan ketmaydi. Hozirda ozod etilgan, 1992 yilda armanlar qo‘liga o‘tgan bu qishloqdagi qabriston qabrtoshlardagi suratlariga otilgan o‘qlar, maktab va yasnilarning butkul vayron etilishi vandalizmning yana bir yorqin ko‘rinishi desam adashmayman.

Tarixga qaytish

... 1992 yil 25 fevraldan 26 fevralga o‘tar kechasi. O‘sha mash‘um ayozli tun butun umrga Ozarbayjon xalqining tarixiga muhrlanib qoldi. Xojalining vahshiylarcha qiynoqqa solingan tinch aholisi, ayollar, bolalar, qariyalarga qarshi sodir etilgan jinoyat, ularni daxshatli o‘limdan saqlab qololmagan jinoyiy befarqlikka yo‘l qo‘yganlar vijdoni haqidagi tortishuvlar, hissiyotlar, bu boradagi xotiralar kishiga tinchlik bermaydi. Ochiq aytganda, mazkur jinoyat o‘zining shafqatsizligi va surbetligi bilan Kavkaz xalqlari tarixida ajralib turadi. Xojaliliklar boshiga tushgan qayg‘uni Yaratgan boshqa xalqlar qismatiga solmasin!

1992 yil 26 fevral kuni arman harbiy bo‘linmalari 7 ming nafar aholiga ega Xojali shahrida genotsid aktini uyushtirdi. Harbiylarning shaharga hujumi chog‘ida bu yerda atigi uch mingga yaqin kishi qolgandi, negaki, shahar to‘rt oydan ko‘proq vaqt davomida qamalda qolgani bois aholining katta qismi uni tark etishga majbur bo‘lgandi.

Xojali qirg‘ini vaqtida 613 kishi o‘ldirildi, 1000 nafar turli yoshdagi tinch aholi olingan jarohatlardan nogiron bo‘lib qoldi. 106 nafar ayol, 63 nafar go‘dak, 70 nafar qariya qatl etildi, 8 oila to‘laligicha yo‘q qilindi, 25 nafar bolalar ham otasidan, ham onasidan judo bo‘ldi, 130 nafari ota-onasining biridan ayrildi. Fojia kuni tunda 1275 tinch fuqaro asirga olindi, ulardan 150 nafarining taqdiri hanuzgacha noma‘lum.

Bularning bari arman harbiylari tomonidan o‘ta

shafqatsizlik va misli ko‘rilmagan vahshiylik bilan hayotga tatbiq etildi. Hujumda mayor Oganyan Sayran Mishegovich (hozirgi vaqtda Tog‘li Qorabog‘dagi noqonuniy rejimning «mudofaa vaziri») qo‘mondonligidagi 366-polknning 2-bataloni, Yevgeniy Nabokixin boshchiligidagi 3-batalon, 1-batalon shtabi boshlig‘i Chitchyan Valeriy Isaevich va polknning 50 nafardan ziyod arman zobit va praporshiklari qatnashgan («Xojali ishg‘oli ishi bo‘yicha tergov materiallaridan»).

Qochish orqali o‘zini qutqarmoqchi bo‘lgan aholining bir qismi oldindan qo‘yilgan pistirmalarda o‘ldirildi. Rossiya inson huquqlarini himoya qilish «Memorial» markazining ma‘lumotiga ko‘ra, to‘rt kun mobaynida Xojalidan Agdamga 200 nafar kishining jasad i keltirilgan, o‘nlab murdalar ustidan tahqirlash faktlari qayd etilgan. Agdamda 181 jasad (130 nafar erkak va 51 nafar ayol, shu jumladan, 13 nafar bola) sud-tibbiy ekspertizadan o‘tkazilgan. Ekspertiza davomida 151 nafar kishining o‘limiga o‘qdan yaralanish, 20 kishining o‘limiga oskolka jarohati, 10 kishining o‘limiga qattiq buyum bilan zarba berish sabab bo‘lgani aniqlangan. Huquqiy himoya markazi tomonidan tirik odamlarning terisini shilish faktlari qayd etilgan.

Xojali genotsidining ko‘rinishlari kishini dahshatga soladi. Xojalida yashagan Antiga ismli ayol arman harbiylarining «Bu yerlar – Buyuk Armanistonning bir qismi» deb talab qilgan so‘zlarni aytishdan bosh tortgani uchun tiriklayin yoqib yuborilgan. Xojalilik yana bir ayol Sariya Talibovanning hikoya qilishicha, 4 nafar mesxeti turklari va 3 nafar ozarbayjonliklar boshi armanlar qabri ustida tanasidan judo qilingan. So‘ngra yana 2 nafar ozarbayjonlikning ko‘zlari o‘yilgan. Armanlar boshqa tirik odamlar ustidan ham kulishgan. Tirnoqni etdan ajratish, kallani tanasidan va boshqa a‘zoldan judo qilish, bolalarning ko‘zini o‘yish, homildador ayollarning qomini chavaqlash qonho‘rlarning sevimli usullaridan bo‘lgan. Xojaliga hujum chog‘ida 5, 45 kalibrli ta‘qiqlangan patronlar va kimyoviy qurol qo‘llanilgan. Bularning bari Armaniston tomonidan Jeneva konventsiyasi protokoli buzilishining fakti tasdiqlanishi va tinch aholiga qarshi genotsid amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

2000 yil 15 dekabrda «Xalqaro tinchlik yo'lida» Karnegi Fondi tahlilchisi Tomas de Vaalga bergan intervyusida Armanistonning o'sha paytdagi mudofaa vaziri, amaldagi prezident Serj Sargsyan Rossiyaning 366-polki Xojali shahrining ishg'olida yordam berganligini va amalga oshirilgan jinoyat oldindan rejalashtirilgan harakat ekanligini tan oldi.

«Ozarbayjonliklar artilleriyasi o'qi yetib bormaydigan Qorabog'ning birorta nuqtasi bo'lmagandi. O'shanda biz Xojali, Malibeyli, Shusha, Agdam va qolgan barcha hududlarda birin-ketin operatsiya o'tkazdik. Shunchaki front liniyasini mana bu yerdan o'tkazamiz, degan sovuqqon hisob-kitob qilgandik», degan edi o'z intervyusida Sargsyan. Axar, az Xojali fojiasiga talluqli intervyuning bir qismini taqdim etadi:

Tomas de Vaal. Mening ma'lumotlarimga ko'ra, sizga masalan, 366-polk yordam ko'rsatgan, 1992 yil sentyabrda Ozarbayjonning hujumini qaytarish uchun Xojalida yana qandaydir qo'llov ko'rsatilgan.

S. S. Men 366-polk ayrim zobitlarining qandaydir ishtirokini inkor qilmayman, ammo, birinchidan, mazkur polk bizga emas, o'ziga yordam bergan, chunki ozarbayjonliklar «Grad» bilan faqat bizgamas, 366-polkka ham zarba berishdi. Demakki, ular o'z harakatlari ustida o'ylashlari kerak edi. Ikkinchidan, 366-polkda ko'plab arman ofitserlar xizmat qilgan, shu ma'noda ular qo'mondonlikni ogohlantirmasdan bizga ko'mak berishlari mumkin edi. Ular shunday yo'l tutishdi. Qorabog' armiyasining hozirgi qo'mondoni, general-leytenant [Seyran] Oganyan batalon komandiri bo'lgan. U qanday qilib bizga ko'mak ko'rsatmasdi?

T. V. Agar biz armiyani professionallashtirish darajasi haqida gapiradigan bo'lsak, men ham sizdan Xojali xususida so'ramoqchi edim. Chunki Xojalidan qochish chog'ida juda ko'plab ozarbayjonliklar halok bo'lganini hech kim rad etmaydi, bu Askeranlik qandaydir Qorabog' otryadlarining qo'li bo'lsa kerak?

S. S. Bilasizmi, bunday narsalar haqida baland ovozda gapirilmaydi. Bo'lishi mumkin narsalar haqida gapiriladi. Men ham shunday yo'l tutmoqchiman. Birinchidan, Ozarbayjonning

sobiq rahbari hujumni uyushtirganlar arman emas, balki ozarbayjonliklar bo'lganini aytgandi. Ammo ochig'ini aytayin, haqiqat boshqacha. Ya'ni Xojali bir vaqtlar butun Qorabog'ni judayam joniga tekkandi, chunki u yerda aeroport joylashgan, zero bizning Armaniston bilan yagona aloqamiz havo transporti edi, chunki u yerda OMON joylashtirilgan, bu yerda qandaydir rejalar tuzishar, ko'plab odamlarni qamoqqa olishardi.

Bundan tashqari, Stepanakert (Xankendi) ostonasida turib olib, Qorabog'ni o'qqa tutishga jazm qilishdi. O'ylaymanki, eng muhimi boshqa narsada. Xojali voqealarigacha ozarbayjonliklar armanlar tinch aholiga qarshi qo'l ko'tarolmaydi, deb o'ylashardi. Bu fikrlarning barchasini chip-pakka chiqarish kerak edi. Shunday bo'ldi ham. Shuni ham hisobga olish kerakki, bu (jangarilar nazarda tutilmoqda) yigitlar orasida Bokudan, Sumgaitidan qochganlar bor edi. Shunga qaramay, juda ko'p voqealar oshirib, bo'rttirib yuborilgan. Ozarbayjonliklarga qandaydir joyni Sumgaitiga taqqoslashga bahona kerak edi. Ammo ularni taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, aslida Xojalida tinch aholi bor edi. Biroq tinch aholi orasida harbiylar ham bo'lgan. Snaryad uchgan paytda u tinch aholini askardan ajratib o'tirmaydi, uning ko'zi yo'q. Ketishga ajoyib imkoniyat mavjud bir paytda agar tinch aholi u yerda qolar ekan, demak, ular ham jangovor harakatlar ishtirokchisi hisoblanadi...

Ko'rib turganingizdek, Armaniston rahbari qonli jinoyatlarni inkor etmayapti. Milliy mansublik doirasida bolalar, ayollar va qariyalarga qarshi sodir etilgan qonli va insoniylikka zid vaxshiyliklar qalbni larzaga keltiradi, qonni qaynatib yuboradi.

Shu o'rinda arman xalqining eng vaxshiy mafkurachilaridan biri Zoriya Balayanning «Ruhlarimizning uyg'onishi» nomli kitobidan iqtiboslar keltirish o'rinli. Unda 1992 yil 26 fevralida sodir etilgan jinoyatlar haqida ochiqchasiga yozilgan:

««...Ishg'ol qilingan uylardan biriga Xachatur bilan kirganimizda bizning askarlar yosh turk bolani derazaga mixlab tashlashgan ekan. Dod-voy solmasligi uchun Xachatur uning og'ziga o'ldirilgan onasining kesilgan ko'kragini solib qo'ydi. Keyin bolaning ko'krigidan qornigacha pichoq tortib

yubordim. U oradan yetti daqiqa o'tib qon yo'qotishdan o'ldi. Ruhim xursandchilikka to'ldi. Xachatur bolaning jasadini qismlarga bo'lib ular qavmidan bo'lgan itlarga tashladi. Kechasi yana uchta turk qavmidan bo'lgan bolakayni shu ahvolga soldik. Men armanlarni sevadigan kishi sifatida o'z burchimni bajardim. Har bir arman bizning harakatlarimizdan faxrlanishini bilgandim».

Hozirgi kunda Livanda istiqomat qilayotgan yana bir arman muallifi, yozuvchi-jurnalist David Xerdiyan Xojalida ozarbayjonliklarga nisbatan sodir etilgan vaxshiyliklarni «Xoch nomi yo'lida» nomli kitobida faxr bilan esga oladi: «Ertalab azonda Doshbuloq nomli joyga yaqin botqoqdan o'tish uchun inson jasadlaridan barpo etilgan o'ziga xos ko'priklarni bo'ylab harakatlandik. Men jonsiz inson jasadlari ustida bo'ylab yurishdan bosh tortganimda, Oganyan familiyalii podpolkovnik meni qo'rqmaslikka buyurdi. Men komandir bo'yruqiga bo'ysunib, botqoqdan yurish uchun 9-10 yosh atrofidagi qizchani ko'kragiga oyoq qo'yishga majbur bo'ldim. Oyoq kiyimim va shimim qonga belandi. Xullas, men 1200 nafar jasadni tepalab o'tdim».

«Armanlarning Gaflan guruhi (jasadlarni kuydirish bilan shug'ullanuvchi) 2000 atrofidagi mo'g'ullar (turklar) jasadlarni yig'ib Xojali g'arbidan bir chaqirim masofada to'p-to'p qilib yoqib yubordi. Oxirgi yuk mashinasida boshi va qo'lidan yaralangan 10-yoshli qizchaga ko'zim tushdi. Diqqat bilan nazar solsam, arang nafas olardi. Sovuq, ochlik va olingan jarohatlariga qaramay, qizcha hali tirik edi. O'lim bilan olishayotgan bu qizchani ko'zini hech qachon unutolmayman! Keyin Tigranyan ismli askar uning qulog'idan ushlab tanasiga mazutli lattani o'radi. So'ngra ularni yoqib yuborishdi. Shu paytda ham yordam so'rab qichqarganlar hayqirig'ini eshitdim».

Tarixga teran nazar solsak, to'qnashuvlar, urushlar, halokatlar, ziddiyatlarsiz o'tmagan kunlar kam ekaniga guvoh bo'lamiz. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, so'nggi 200 yil mobaynida kamida 22 ta urush yuz bergan. AQSh xalqaro terrorga qarshi urush boshlagan 2001 yilning 11 sentyabridan, ya'ni 21-asrning dastlabki yillaridan boshlab uchinchi ming yillikning ortda qolgan 17 yili mobaynida ham urushsiz

kunning o'zi bo'lmadi. Insoniyatning besh ming yillik davrida 150 milliondan ziyod kishi urushlar qurboniga aylandi. Ularning 73 foizi faqat XX asrda yuz bergan urushlar hissasiga to'g'ri keladi. Birgina ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoning 151 mamlakatida 231 ta qurolli mojaro yuz berdi. Ularning yarmi tarixning yaqin davri, aniqrog'i sovuq urush yakunlangan 1990 yillardan keyingi davrga to'g'ri keladi. Ammo barcha urushlar orasida ommaviyligi, shafqatsizligi, noinsoniyligi bilan ajralib turadigan, oqlab bo'lmaydigan terrorchilik amallari ham bor. Xojali qirg'ini nafaqat Ozarbayjon tarixida, balki butun insoniyat tarixida eng qo'rqinchli hodisalardan, misli ko'rilmagan jinoyat amallaridan biri hisoblanadi.

Ozarbayjon rasmiylarining aytishicha, fojia yuz berganidan faqat ikki kun o'tib hodisa joyiga borishga erishilgan. Guvohlar duch kelgan qalbni larzaga keltiradigan sahna shu qadar og'ir va shafqatsiz bo'lganki, uni ta'riflashga ta'bir joiz bo'lsa, til ojjiz. Qalban, tarixan jonajon yeriga bog'liq bo'lgan oddiy, begunoh odamlarning, endigina tetapoya qilayotgan go'daklarning jasadini kunning izg'irinli sovug'ida qadrdon yer o'zining issiq bag'riga oldi. Inson qiyofasidagi vahshiylar ularni toptadi, ammo Yaratgan ularga shahidlik maqomini ato etdi.

Ushbu qonli hodisaga guvoh bo'lgan, oilasidan faqat go'dak qizi va to'rt yoshli o'g'linigina qutqarib qolgan yosh ona ko'zida yosh bilan Xojalining qalbni larzaga keltiradigan tarixini shunday hikoya qiladi: «Odamlardan hatto ov miltig'ini ham tortib olishdi. Bizda o'zimizni himoya qilish uchun hech qanday imkoniyat yo'q edi. Faqat turmush o'rtog'im qurolini berkitishga muvaffaq bo'ldi. Olov ichida yonayotgan shahardan Xojalining eng chekka qismiga arang yetib oldik. Keyin ta'qib etayotgan jangarilar bizga qarata o'q uzayotganlarini ko'rdik. Ular bizni yo o'ldirmoqchi yoki asirga olmoqchi edilar. Erim to'xtab ularga qarata o'q uzdi. U «qochinglar, sizni ushlab olishlariga yo'l bermang!» deya qichqirardi. Oilamizning ayrim a'zolari o'q tegib yerga yuztuban yiqilishdi. U jangarilar bilan ayovsiz jang qilardi. Men ikkita bolam bilan yalangoyoq, bosh kiyimsiz yugurib, qorong'ida shoxshabbalar orasiga yashirindim. Erimdan uzoqlashib borganim

sari uning «qochinglar, yashiringlar, qo'lg'a tushmanglar!» degan hayqiriqlari elas-elas eshitalardi. Biz qochib qutuldik, u esa shahid bo'ldi...»

Ozarbayjonlik er o'g'lon so'nggi nafasi qolgunicha jang qildi. Halok bo'lsada, nomusini qutqardi.

Ozarbayjon milliy qahramoni, marhum Chingiz Mustafaeov suratga olgan dahshatli kadrlar butun dunyoga Xojali fojiasining miqyosini va arman jallodlarining vahshiyligini namoyish etdi.

Butun dunyo arman odamxo'rlarining shafqatsizligi va noinsoniyigidan seskandi. Armanlarning o'zi ham qora qilmishlaridan tonmay, hatto yozganlarini oshkor etishdan uyalishgani yo'q.

Bunday qonxo'rni kim deyish mumkin? Balayanga o'xshaganlarni fashist, o'zining qalami bilan o'zini fosh etgan jallod desak, to'g'ri bo'ladi. Qanday qilib shifokor yozuvchini milliy qahramon deyish mumkin? Buni odamxo'rlik, insoniyatga qarshi jinoyat deya ta'riflasak to'g'riroq bo'ladi.

Xojalidagi qirg'in haqida jamoatchilik asta-sekin xabardor bo'ldi. Avvaliga ko'pchilik shunchaki bunga ishonishdan bosh tortdi, chunki, o'sha paytgacha mojaroni yoritgan jahon ommaviy axborot vositalari armanlarni bosqinchi emas, balki asosan ziddiyatning qurbonlari sifatida tasvirlardi.

Hozir ham ular Xojalidan qochishda ko'plab tinch fuqarolar qurbon bo'lganini inkor etishmaydi. Ayrimlar qirg'inda go'yoki bebosh harakat qilgan arman ko'ngillarini ayblashadi. Arman politsiyasi xodimi, mayor Valeriy Babayan o'sha voqealarning bosh sababchisi shaxsiy qasos deb hisoblaydi. U Amerika jurnalisti Polu Kuinn-Jajga Xojalidagi hujumda qatnashganlarning aksariyati Sumgaiti va shunga o'xshash joylardan bo'lganini aytadi. Arman harbiy qo'mondonlaridan biri Serj Sarkisyandan Xojalining ishg'ol etilishi haqida so'rashganida birmuncha keskin javob bergan:

Asosiy masala umuman o'zgacha.

Xojaligacha ozarbayjonliklar biz bilan hazillashish mumkin, armanlar tinch aholiga qarshi qo'l ko'tarishga qodir emas, deb o'ylashgan. Biz bunday yondashuvni yo'qqa chiqarishga erishdik. Mana nima sodir bo'lgan».

Sarkisyan bergan baho mazkur ommaviy qotilliklar qisman bo'lsada, ozarbayjonliklarda qo'rquv uyg'otish uchun sodir etilgan.

«Qora bog'« kitobining muallifi Tomas de Vaal bilan suhbatda Sarkisyan Ozarbayjonda do'stlari ko'pligi, ular bilan Stepanakertda komsomolda ishlaganini e'tirof etsada, urushdan taassufda emasligini yashirmaydi. «Eng muhimi – hudud emas. Muhimi, Armanistonda bitta etnos qoldi. Vardenis va boshqa viloyatlarda ozarbayjonliklar aholining 70 foizga yaqinini tashkil etardi. Madaniyatlarimiz qorishmaydi. Biz yonmayon yashashimiz mumkin, ammo bir-birimiz ichida emas. Biz ozchilikmiz».

O'tmishda Armaniston Kompartiyasi birinchi kotibi Aram Sarkisyan yanada ochiqroq fikrni ifodalaydi: «Bugungi Armaniston – bu atigi Turkiyaning barcha turkiy davlatlar bilan birlashishi yo'lidagi kichik to'siq xolos: axir biz ularning Ozarbayjon bilan birlashishiga yo'l bermayapmiz».

Rossiyaning Kavkaz tarixidagi rolga ozarbayjonliklarning nuqtai nazari arman taxminining oynadagi aksi hisoblanadi. Qorabog' armanlarining ajralishga oid talabi atigi Rossiyaning Ozarbayjonni butkul parchalashga qaratilgan global rejasining bir qismi xolos. Ozarbayjon prezidentining sobiq yordamchisi Vafo Guluzoda yozadi:

«Arman-ozarbayjon» tortilgan ziddiyatni ikki tomonlama mojaro deb hisoblab o'zimizni ham, o'zgalarni ham adash-tiramiz. Haqiqatda esa bu rus-turk uzoq qarama-qarshiligining oxirgi bosqichi. Armaniston – o'z xo'jayini irodasining atigi ijrochisi, Ozarbayjon esa faqat global maqsadga erishish yo'lidagi kichik to'siq xolos. Hammaga ma'lumki, hatto XX asr boshida, Birinchi jahon urushi davrida Rossiya Armanistonni Turkiya bilan qarama-qarshilikda ishga solgan. Aftidan, tarix takrorlanmoqda»...

Jahon ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida men ham bir vaqtlar Armanistonni jabr ko'rgan tomon sifatida ko'rardim. Ammo Turkiyaning Igdir shahrida mehmon bo'lgan chog'imda ig'vogarlik aynan ular tomonidan boshlanishiga amin bo'ldim. Usmoniylar saltanati ostida yashab, ularning tuzini yeb chegaradosh hududlarda turklarni qirg'in qilish,

ularning mulklarini talash, qaroqchilik bilan kun kechirganlar. Yana bir yolg'on iddao shundaki, Birinchi jahon urushi davrida Usmoniylar saltanatida 600 ming arman yashagan. Vaholanki, armanlar butun dunyoga turklar tomonidan 2, 5 million kishi qatl etilganini iddao qilmoqda.

Xojali fojiasi turk olamiga qarshi qaratilgan birinchi qirg'in emas. Turkiston tarixida ham bunday jinoyatlar sodir etilgan. Qo'qon muxtoriyatida tinch aholi vakillarining dashnoq armanlari tomonidan qirg'in etilishi ham tarixning achchiq haqiqatlaridan.

Xojalidagi qirg'in tarixiy o'tmishga murojaat etishga va achchiq haqiqatni eslashga da'vat etadi. Mazkur fojia ildizini birgina Xojali yoki Tog'li Qorabog' bilan bog'lash to'g'ri bo'lmas. Ozarbayjonning geosiyosiy o'rni, davlatchiligining boy an'analari mustamlakachilarni doimo qiziqtirib kelgan. Tarixdan ma'lumki, Ozarbayjon davlatchiligi Safaviylar davlati tashkil topgan paytlarda o'zining yuksak cho'qqisiga chiqqan. Qachonlardir keng jo'g'rofiy makonni qamrab olgan mazkur davlatning zaiflashuvi oqibatida Ozarbayjon chegaralari kichrayib qoldi. Safaviylar davlatining parchalanishi, Ozarbayjonning alohida xonliklarga bo'linishi, butun mintaqani Rossiya imperiyasi nazorati ostiga o'tishi bilan yakun topdi. Biroq fojia bu bilan yakun topmaydi. Oltoy tog'laridan tortib Bolqongacha bo'lgan hududda Yevrosiyoda hukmronlik qilgan qudratli turk davlatchiligining qayta tug'ilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida rus imperiyasi aynan Kavkazda, chinakam turk yerlarida «ho'rlangan» arman qabilalarini joylashtiradi. Turk makonining strategik markazida joylashgan Ozarbayjon imperiya «qurboni»ga aylandi. So'nggi 300 yil mobaynida aholi tobora o'sayotgan Ozarbayjon hududi qisqardi, bir necha bor bo'linib, imperiya tomonidan yutib yuborildi.

XX asrda chorizm o'rniga kelgan Sovet imperiyasi ham ko'p yillik an'anaga sodiq qolib Ozarbayjonni parchalash siyosatini davom ettirdi. Shafqatsizligi bilan o'tmishdoshidan qolishmaydigan Sovet imperiyasi ko'plab ozarlarni Osiyo cho'llariga badarg'a qilib, Zangazur okrugini armanlarga topshirdi. To'g'ri, 70 yil mobaynida milliy mustaqillik uchun zimdan kurash olib borildi. Faqat 1990 yilning 20 yanvaridagi fojia

orqali yakun topgan kurash milliy davlatchilikning tiklanishiga yo'l ochdi.

Etnik tozalash siyosati tufayli Armaniston bugun yagona millat yashaydigan makonga aylandi. Ozarbayjonda esa ko'p sonli millatlar tinchlik va osoyishtalikda, hamjihatlikda istiqomat qilayotgan bag'rikenglikning namunasi hisoblanadi. Bugungi Ozarbayjon barcha din vakillari uchun kerakli sharoit yaratilgan markaz. Masjidlar bilan bir qatorda pravoslav cherkovni, kirxa, sinagoga va boshqa diniy ibodaxonalarni uchratish mumkin. Mamlakat fuqarolari bo'lgan 40 ming nafar etnik armanlar ham kamsitish nimaligini bilmay yashamoqda.

Xojali genotsidining insoniyatga qarshi sodir etilgan jinoyat sifatida tan olinishi nafaqat Ozarbayjon uchun, balki dunyo birligi uchun xalqaro ahamiyatga ega. 1994 yil fevralda respublika Milli Majlisi tomonidan Xojali voqealarini genotsid deb e'lon qilishi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. O'sha paytdan boshlab Xojali fojiasi insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyat sifatida keng miqyosda eslanadigan bo'ldi. Haydar Alievning 1998 yilda imzolagan «Ozarbayjonliklarga qarshi genotsid to'g'risi» da imzolagan Farmonida ozar fuqarolarining ommaviy qirg'in etilishi genotsid xususiyatiga egaligi va ozarbayjonliklarning etnik tozalash siyosati hisoblanishi ochiq aytiladi. Farmonga ko'ra, yuz yildan ortiq davom etgan genotsid qurbonlari xotirasi uchun 31 mart sanasi «ozarbayjonliklarning genotsidi Kuni» deb e'lon qilindi.

Mojaroning dastlabki yillarida arman qurolli bandalari tomonidan Tog'li Qorabog'ning ozarbayjonlar yashaydigan Kyarkijaxon, Meshali, Gushchular, Garadagli, Agdaban va boshqa qishloqlarida amalga oshirilgan xunrezliklar va nihoyat, Xojalidagi genotsid bir umrga «jafokash» armanlar vijdonidagi qora dog' bo'lib qolishiga shubha yo'q.

Mazkur qotilliklarni arman millatiga mansud insonlar ham tan oladi. Armaniston yozuvchisi *Anna Paytyan bu haqda otashin fikr bildirdi: «Ozarbayjon bolasini o'ldirgan arman bolasini ham o'ldirgan bo'ladi».*

Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda arman millatchilari AQShda istiqomat qilayotgan yozuvchi Anna Paytyanga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Agressiv kayfiyatdagi arman jamoat-

chiligining bu qadar g'azabkorona munosabatiga yozuvchining qo'rqmasdan Xojalidagi genotsidni qoralagani va qonli qirg'in uyushtirgan jallodlarni jazolashni talab qilgani sabab bo'ldi.

Taniqli yozuvchi ayolni bir zumda arman xalqining dushmaniga, Ozarbayjon maxsus xizmatlarining agentiga, shuningdek, tentakka chiqarib qo'ydilar. Bundan tashqari, millatchilar Anna Paytyanning umumiy do'stlari va tanishlarini aniqlab, ular sha'niga tahdidlar yuborishni boshladilar. Adolat nuqtai nazaridan aytish kerakki, Anna Paytyan tarafini olishga botinganlar ham topildi. Gyumrilik faol Anna Avetisyan shular jumlasidan.

«Siz so'zsiz haqsiz. Anavilar na arxivni, na tarixni o'qigan, targ'ibot qurolidan zaharlangan bir xovuch kimsalar xolos. Ularga it xurar, karvon o'tar, qabilida javob qaytarish kerak», – deya achchiqlanadi Avetisyan.

Yozuvchi Anna Paytyanning millatchilarga qarshi javobi ko't o'tmay yangradi.

«Serj Sargsyan qotillari bandasi hozirda mening Xojali borasidagi yozuvimni tarqatish va hammani menga qarshi gij-gijlash bilan band. Chiyabo'rilar galasi eshitinglar, sizlar yaxudiyarga qarshi nafrat tarqatayotgan antisemistlarga o'xshaysizlar, Serjik pullari evaziga turklar, gruzinlar va ozarlarga qarshi xalq nafrati urug'ini ekasizlar. Hammangizni hibsga olish va normal jamiyatdan ixotalab qo'yish kerak, chunki sizlar terrorchisiz. Serj Sargsyan Xojali genotsidi bo'lmagan deya iddao qiladi. Bu ochiq yolg'on. Bu kimsa o'lim jazosiga mahkum qilinishi lozim... Qay kimsa Ozarbayjon bolasini o'ldirsa, arman bolasini ham o'ldirgan bo'ladi. Serj Sargsyan va Robert Kocharyan avf etilishga noloyiq, ularga o'lim!», – deydi Anna Paytyan.

Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir faoli, huquqlari poymol etilgan Armaniston fuqarosi bo'lgan ayol huquqi tiklanishini so'rab Ozarbayjon rasmiylariga murojaat qiladi. «Men va mening oilam Armanistondagi bandit hokimiyatdan qutulish uchun Ozarbayjonga qaytish ilinjida yonyapmiz», – deya Ozarbayjon hukumatiga yo'llangan o'z murojaatini boshlaydi yerevanlik ayol, pedagog, 54 yoshli Arzumanyan Tamella Asratovna. E'tiborlisi, T. Arzumanyan yozganidek, asli Ozarbayjondan.

Murojaat T. Arzumayanning feysbukdagi sahifasida 2016 yilning 27 dekabrda chop etilgan. Mazkur voqeadan zum o'tmay ayol turmush o'rtog'i bilan Armaniston milliy xavfsizlik xizmatiga chaqirilgan, ruhiy va jismoniy bosimga duchor qilingan. Chorasiz qolgan ayoldan ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatini o'chirishni talab qilishgan. Bu qizining davolanishi uchun ajratilgan mablag'ning o'zlashtirilishidan g'azablangan o'z fuqarosining muammosini yechish o'rniga, uni o'z shikoyat va murojaatlaridan vez kechishga undash arman rasmiylariga xos an'anaviy yondoshuvdir. Biroq buning o'rniga jasur Arzumanyan yanada keskin va hissiyotli hayqiriqlarini bildirdi.

Shunda ham arman rasmiylari o'zlariga savol berib ko'rishmayapti. Nega mamlakat fuqarolari, Tog'li Qorabog'ning arman jamoalari vakillari o'z hukumatidan emas, dushman Ozarbayjondan yordam izlamoqda, nega Sargsyan hukumatidan qo'shni davlatga nisbatan bosqinchilik siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda?

Bokuda o'tgan «arman-ozarbayjon, Tog'li qorabog' mojarosi: asosiy to'siqlar va barqarorlashtirish istiqbollari. Armaniston va Ozarbayjondan nigoh» nomli xalqaro konferentsiya yakuni bo'yicha ishtirokchilar Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliiev, Armaniston prezidenti Sarj Sargsyanga murojaat bilan chiqqanlari ham oddiy xalqning urushdan, ziddiyatlardan charchaganini namoyish etadi.

Mana o'sha murojaat matni: «Biz, arman va ozarbayjon xalqlari vakillari, yuragimizda og'riq bilan 25 yildan beri davom etayotgan, o'n minglab fuqarolarimizning o'limiga, yuz minglab qochoqlar va majburan ko'chishga sabab bo'lgan arman-ozar, Tog'li Qorabog' mojarosini yechish yo'llari va asosiy muammolarni muhokama etishga yig'ildik. Shu bois sizlarga murojaat qilishni o'zimizning fuqarolik burchimiz deb bilamiz.

SSSR tarqagach, o'z yo'lini o'zi tanlash huquqidan foydalanib Ozarbayjon va Armaniston mustaqil davlat bo'ldilar. Xalqaro huquq va umume'tirof etilgan Xelsinki yakuniy akti asosida zamonaviy davlatlararo munosabatlar taassuflar bo'lsinkim, Janubiy Kavkazda yo'lga qo'yishga erishilmadi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi qonli urushlar oqibatida hanuz mintaqada tinchlik va barqarorlik o'rnatish imkonini bermayapti. Yoshi, jinsi va millatidan qat'iy nazar, o'n yillar davomida har ikki mamlakatga keltirgan ulkan ruhiy va moddiy ziyon yetkazgan urush olovining barcha dahshatlarini faqat statistik raqamlar bilan ifodalab bo'lmaydi.

Arman va ozar xalqlari mazkur mojarodan charchaganlariga ancha bo'ldi, yangidan-yangi talofatlarni istamaydilar. So'zsis, arman va ozarbayjonliklarning o'zlaridan boshqa hech kim ziddiyatni yechib bermaydi. Shundan kelib chiqib, biz

– mardlik va donolikni namoyon etishga, o'tmishning asiri bo'lmaslikka, kelajaka boqishga, urushning fojiali oqibatlari-dan saboq chiqarishga chaqiramiz.

– Mojaroni tinch yo'l bilan tezroq yechish uchun natijaga yo'naltirilgan substantiv muzokaralarni tezlashtirish, natijasiz muzokaralarga chek qo'yish lozim. Muammoning tezroq hal etilishi nafaqat Tog'li Qorabog', balki butun Armaniston va mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotiga turtki beradi, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik va tinchlik ishiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladi. Bu holda g'oliblar ham, mag'lublar ham bo'lmaydi, aksincha tinchlik ham Armaniston, ham Ozarbayjon xalqlari uchun katta yutuq bo'ladi.

– YeXHT Minsk guruhi hamraisarlari davlat rahbarlari mu-loqotlarni nomaqbul va nomustahkam deya bir necha bor ta'kidlaganlaridek, yaqin vaqtlarda mavhumlik maqomini o'zgartirish kerak.

– Hozirgi mavhumlik maqomining fundametal asosi hisoblangan okkupatsiya faktini bartaraf etish va qo'shinlarni olib chiqishni ta'minlash zarur.

– Ichki ko'chirilgan shaxslarni o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytishini munosib va xavfsiz ravishda ta'minlash darkor.

– Bugungi kunda Ozarbayjon arman millatiga mansub fuqarolar erkin istiqomat qilayotgan, mojaro mavjudligiga qaramay, huquqlari kamsitilmayotgan, toqatlilik va bag'rikenglik hukm surayotgan rivojlanayotgan mamlakat hisoblanadi. Ozarbayjonning Tog'li Qorabog' mintaqasida ozar va arman jamoalari birgalikda xavfsiz va tinch yashashlari uchun hech qanday

muammo yo‘q. Shuning uchun go‘yoki arman va ozarlarning etnik murosasizligi va ularning birgalikda yashay olmasliklari to‘g‘risidagi asossiz, irqiy fikrlar qat‘iylik bilan rad etilishi kerak.

– Shu nuqtai nazardan Ozarbayjon doirasida arman va ozar jamoalarining huquqi va xavfsizligi kafolatlanadigan Tog‘li-Qorabog‘ muxtor respublikasini tashkil etish to‘g‘risida yaqinda bildirilgan taklif Armaniston va Ozarbayjon jamoatchiligi tomonidan potentsial va amalga oshirsa bo‘ladigan yarashuv sifatida jiddiy ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

– Armaniston va Ozarbayjon o‘rtasida BMT, YeXHT, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar rezolyutsiya va qarorlariga, ayniqsa, BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli rezolyutsiyalari va xalqaro huquq hamda Xelsinki yakunlovchi aktining suverenitetni, hududiy yaxlitlik va xalqaro tan olingan chegaralar daxlsizligini o‘zaro hurmat qilish kabi printsiplaridan kelib chiqqan holda zamonaviy munosabatlarni shakllantirish zarur.

– Fuqaroviy jamiyatlarning muloqotini davom ettirish uchun mazkur platformadan bundan keyin ham foydalanilishi ziddiyatni yechishga hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, armanlarning Ozarbayjon hududlariga e‘tirozi butkul barbod bo‘ldi.

Bugun mazkur fojiani butun dunyoda tan olish, Xojalidagi qonli qirg‘in to‘g‘risida asl haqiqatni jahon jamoatchiligiga yetkazish muqaddas burch sanaladi. Haydar Aliev fondi mana bir necha yildirki, dunyoning 70 mamlakatida Xojali fojiasiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazmoqda. Konferentsiyalar, xotira kechalari, chop etilayotgan kitoblar, bukletlar, DVD-disklar, olinayotgan filmlar shular jumlasidan.

Haydar Aliev Fondi vitse-prezidenti, Rossiyaning Ozarbayjon yoshlari tashkiloti raisi Laylo Alieva tashabbusi ostidagi «Xojaliga adolat» xalqaro kampaniyasi yildan-yilga kengayib bormoqda. Kampaniya doirasida butun dunyoda yuzlab aktsiyalar o‘tkazilayotir. Yevropa Ittifoqiga a‘zo mamlakatlarning deyarli barchasida, shuningdek, MDH, Osiyo, Janubiy va Shimoliy Amerikada konferentsiyalar, seminar va piketlar o‘tkazilayotgani o‘z samarasini bermoqda. Ushbu

kampaniya tufayli Xojalidagi fojiani qator xalqaro forumlar tan oldi. Islom Hamkorlik tashkilotining Yoshlar forumi va Fond tashabbusi ostida Xojadi fojiasi 31 mamlakat parlamentlari tomonidan insoniyatga qarshi jinoyat sifatida e'tirof etildi. Dunyoning 20 mamlakatidagi yetakchi oliy o'quv yurtlarida yoshlarning fleshmoblari o'tkaziladi. Shu bilan bir vaqtda kampaniyaning yangi bosqichi – mazkur fojiani genotsid va insoniyatga qarshi jinoyat sifatida tan olish so'ralgan ariza va murojaatlar davlatlar va hukumatlar rahbarlariga, YeXHT Minsk guruhiga, PASYe, BMT Kotibiyatiga, dunyo parlamentlari va xalqaro tashkilotlarga yuborila boshlandi. Jahon jamoatchiligi e'tiborini Xojali fojiasi haqidagi haqiqatdan xabardor etish, xalqaro jamoatchilikning ushbu fojiaga siyosiy-huquqiy va ma'naviy bahosini olishga qaratilgan «Xojaliga adolat» xalqaro kampaniyasida dunyoning ko'plab mamlakatlarida minglab ko'ngillar tomonidan targ'ibot ishlari muvaffaqiyatli tarzda olib borilmoqda.

Ozarbayjon parlamenti delegatsiyasi a'zolarining Shotlandiyaga tashrifi chog'ida milliy parlament vakillari bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazildi, parlament raisi va fraktsiyalar rahbarlari bilan amaliy uchrashuvlar, Shotland parlamenti a'zolari hukmiga to'liq axborot berilgani tufayli o'lka siyosiy partiyalarining barchasi Xojali genotsidiga siyosiy baho berishga qaror qildilar. Mazkur qaror matni parlament saytida chop etildi. Rezolyutsiya loyihasi matniga o'z ismlarini kiritgan Shotlandiya parlamenti a'zolarining aksariyat ko'pchiligi taklif etilgan rezolyutsiyani qo'llab-quvvatladi. Rezolyutsiya shuningdek, Ozarbayjon hududlarining okkupatsiyasini qoralaydi, Xojalining mahalliy aholisiga qarshi sodir etilgan qonli hodisalarni genotsid deb tan oladi. Parlament a'zolarining 80 foizi qo'llab-quvvatlagan qarorda Xojali qirg'inini amalga oshirishda javobgar bo'lgan shaxslarning harakati harbiy jinoyat sifatida baholanadi, shuningdek, kelajakda bu kabi fojialarning takrorlanishi oldini olish maqsadida mazkur rezolyutsiyani qabul qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Hujjatda qayd etilishicha, Armaniston BMT XKning 4 ta rezolyutsiyasiga qaramay, Ozarbayjonning 20 foiz hududini ishg'ol qilib turibdi, shu sababli mojaroni xalqaro huquq

normalari asosida barqarorlashtirish kerakligiga urg‘u beriladi.

Oxirgi bir necha yil mobaynida xalqaro hamjamiyat Xojalidagi genotsidni tan olish uchun jiddiy qadamlar tashladi. Bugungi kunda Bosniya va Gertsogovina, Kolumbiya, Chexiya Respublikasi, Gonduras, Iordaniya, Meksika, Pokiston, Panama, Peru, Ruminiya, Serbiya va Sudan parlamentlari, shuningdek, AQShning 10 dan ziyod shtatlari Xojalidagi genotsidni tan olish haqidagi parlament aktlarini qabul qilishdi.

2012 yilning 20 noyabrida Jibutida o‘tkazilgan Islom Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo mamlakatlar tashqi ishlar vazirlari Kengashi Xojali qirg‘inini genotsid deb tan olish haqidagi rezolyutsiyani qabul qildi.

Islom sammitining 2013 yil fevraldagi Qohirada o‘tgan 12-sessiyasida va IHT konferentsiyasining yakunlovchi hujjati a‘zo mamlakatlarni Xojali genotsidini tan olish uchun sa‘y-harakatlarni kuchaytirishga chaqiradi.

Meksika Senati 2011 yilning 8 dekabrda qabul qilgan rezolyutsiyasida bayon qilishicha, 1992 yilning 26 fevralida Armaniston qurolli kuchlari Ozarbayjonning Tog‘li Qorabog‘ mintaqasidagi Xojali shahrining tinch aholisiga qarshi uyushtirgan genotsid hujumi oqibatida yuzlab odamlar o‘ldirilgan va ularning o‘limi ko‘plab mustaqil manbalar tomonidan hujjat asosida e‘tirof etilgan.

2012 yilning 1 fevralida Pokiston Senatining tashqi aloqalar bo‘yicha qo‘mitasi bir ovozdan Ozarbayjon hududlarining bosib olinishi va arman qurolli kuchlari tomonidan Xojalida amalga oshirilgan genotsidni qoralovchi rezolyutsiyani qabul qildi.

2012 yilning 12 aprelida Kolumbiya Respublikasi Senati Ozarbayjon hududlari okkupatsiyasi munosabati bilan hujjat qabul qildi. Mazkur hujjatda 1992 yilda Xojalida sodir bo‘lgan bosqin genotsid deb tan olinadi, Ozarbayjon hududlarining bosib olinishi qoralanadi, Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi va uning xalqaro tan olingan chegaralari e‘tirof etilishi qo‘llab-quvvatlanadi.

2013 yilning 7 avgustida Panama Respublikasining Milliy Assambleyasi «Arman kuchlari tomonidan Ozarbayjon hududining bosib olinishi to‘g‘risida»gi rezolyutsiya

qabul qilinadi. Assambleya bosqinni va mojaro chogʻida ozarbayjonliklarning huquqlari buzilishini keskin qoralaydi. Shu bilan birga rezolyutsiyada Armanistonni BMT XKning 822 (1993), 853 (1993), 874 (1993) va 884 (1993) rezolyutsiyalariga amal qilishga daʼvat etadi. 2014 yilning 1 sentyabrida Sudan Milliy Assambleyasining xalqaro masalalar qoʻmitasi «Xojalidagi qotilliklar toʻgʻrisi»da bayonot qabul qildi. Islom Sammitining 12-sessiyasi va IHTning 2013 yil fevral oyida Qohirada oʻtkazilgan Yakuniy hujjatiga asoslanib, mazkur bayonot Xojalidagi ommaviy qotillikni genotsid va insoniyatga qarshi jinoyat deb tan oladi, armanlarning Ozarbayjonga qarshi agressiyasini qoralaydi, Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini yoqalaydi, Armanistonni zudlik bilan, toʻla va soʻzsiz ravishda bosib olingan hududlardan oʻz qurolli kuchlarini olib chiqishga chaqiradi. AQSh shtatlarining oʻndan ziyod vakillar palatasi, aniqrogʻi, Arkanzas (08. 02. 2013), Konnektikut (16. 04. 2013), Jorjiya (24. 02. 2012), Indiana (03. 03. 2014), Men (13. 03. 2012), Massachusets (25. 02. 2010), Nyu-Jersi (25. 02. 2012), Nyu-Mexiko (28. 01. 2013), Oklaxoma (20. 02. 2013), Pensilvaniya (20. 03. 2013 va 02. 03. 2015), Tennesi (19. 03. 2013), Texas (03. 03. 2011) va Gʻarbiy Virjiniya (03. 04. 2013) parlamentlari Xojali genotsidini tan oluvchi va qayd etuvchi hujjatlarni qabul qilishdi. Mazkur hujjatlar Ozarbayjon hududlarining arman qurolli kuchlari tomonidan ishgʻol etilishini, Xojalidagi 600 dan ziyod begunoh fuqarolarining oʻldirilishini qoralaydi, qurbonlarga hamdardlik bildiriladi. Jorjiya shtati vakillar palatasining 1594 sonli rezolyutsiyasi Xojalidagi qirgʻin munosabati bilan Serj Sargsyan ismi esga olingan birinchi hujjat hisoblanadi.

Dunyoda qabul qilingan xalqaro konventsiyalar va qonunlar Xojali fojiasiga oʻxshash genotsid hodisalarini qoralaydi, bunga yoʻl qoʻyib boʻlmasligini bayon qiladi. Olam ahli mazkur jinoyat nafaqat Ozarbayjon xalqiga, balki butun insoniyatga qarshi qaratilganini bilishi kerak. Bugun Armanistonda, tan olinmagan Togʻli Qorabogʻ respublikasida oliy martabali lavozimlarni egallab turgan amaldorlar sodir etilgan genotsidning aybdorlari sifatida xalqaro sud oldida javob bermoqlari shart.

Jinoyat jazosiz qolishi mumkin emas. Armanistonning harbiy-siyosiy agressiyasi jahon jamoatchiligi tomonidan qat'iy qoralanishi kerak. Xalqaro tashkilotlar, dunyo mamlakatlari parlamentlari Xojali qirg'iniga arman respublikasi tomonidan sodir etilgan genotsidga xalqaro, siyosiy-huquqiy bahoni berishlari maqsadga muvofiq.

Genotsidning huquqiy jihatlari

Armaniston tomonidan bosib olingan Ozarbayjon hududlari – Tog‘li Qorabog‘ va unga tutash yettita tumandagi vaziyatga xalqaro huquq tamoyillarining barcha ko‘rinishlarini qo‘llash mumkin. Bu o‘rinda kuch ishlatishga taalluqli barcha tamoyillar; xalqaro gumanitar huquqning me‘yorlari; inson huquqlari sohasidagi xalqaro me‘yorlar va xalqaro javobgarlikning tamoyillarini kiritish to‘g‘ri bo‘ladi.

Armaniston Respublikasi hukumati va unga hisobdor kuchlar xalqaro huquqqa javob beruvchi tomon sifatida xalqaro huquq tomonidan jinoyatlar tasnifiga tenglanadigan xalqaro gumanitar huquqni va inson huquqlarini jiddiy ravishda buzganligi uchun javobgar deb xulosa chiqarishga asoslar yetarli. Armanlar tomonidan urush olib borishning qoidalarini buzish o‘z ichiga yoppasiga kuch qo‘llash, shu jumladan, tinch fuqarolarni o‘ldirish, garovga olish va saqlab turish, shuningdek, harbiy asirlar va garovdagilar bilan nomunosib muomalada bo‘lish hamda ularni o‘zboshimchalik bilan qatl etishni qamrab oladi.

Ozarbayjonga qarshi noqonuniy kuch qo‘llash va uning hududlari bosib olinishiga javob sifatida 1993 yilda qabul qilingan tegishli rezolyutsiyalarda BMT Xavfsizlik Kengashi bevosita xalqaro gumanitar huquqning buzilishiga, jumladan, Ozarbayjondagi fuqaroviy shaxslarning sezilarli qismini ko‘chirish, fuqaroviy shaxslarga hujum qilish va aholi yashash tumanlarining o‘qqa tutilishiga ishora qiladi. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi 2010 yil 22 apreldagi qarorida Ozarbayjonning Xojali shahri tinch aholisining ommaviy yo‘q qilinishini «harbiy jinoyat yoki insoniyatga qarshi jinoyatga teng o‘ta og‘ir qilmish sifatida belgilagan».

Ozarbayjon tomonidan o‘tkazilgan rasmiy tergov davomida aniqlanishicha, Xojalidagi fuqaroviy shaxslarga hujum chog‘ida xalqaro huquq iborasida belgilanganidek genotsid jinoyatining quyidagi unsurlari qo‘llanilgan: *actus reus*, ya‘ni qotillik va jiddiy tan jarohatlari yetkazish yoki qasddan tartibsizlik keltirish; irqiy, etnik, milliy va diniy belgiga qarab qandaydir guruhning to‘la yoki qisman yo‘q qilinishini

koʻzda tutgan aniq genotsid maqsadi. Xojalida sodir etilgan jinoyatga doir tergov natijalariga koʻra, genotsid ayblovini quyidagi unsurlar tasdiqlaydi: qandaydir guruhni toʻlaligicha yoki qisman yoʻq qilish urinishiga ishonchli va soʻzsiz dalillar mavjudligi; Xojalida sodir etilgan yoʻq qilish fakti koʻrsatilgan guruhlarning javobgarlikka tortilishi uchun yetarli ekanligi; va nihoyat jinoyat aniq joʻgʻrofiy hudud doirasida amalga oshirilganligi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik

Xalqaro huquqqa koʻra, Armaniston va Ozarbayjon mojaroosi chogʻida sodir etilgan jinoyat ham davlatlarning, ham alohida olingan shaxslarning jinoiy javobgarligini koʻzda tutadi.

Ozarbayjonga qarshi agressiya va uning hududi ishgʻoli davom etar ekan, Armaniston Respublikasi xalqaro huquq buzilgani uchun toʻliq javobgar. Mazkur javobgarlikning yuridik oqibatlari mavjud: eng avvalo, bunga oʻxshash harakatlarni toʻxtatish majburiyati, bu harakatlar takrorlanmasligiga adekvat ishontirish va kafolat berish va restitutsiya, kompensatsiya hamda satisfaksiya shaklida (alohida yoki jamuljam) shaklida yetkazilgan ziyonni toʻlaligicha qoplashni taʼminlash lozim.

Armaniston xalqaro jinoiy huquqning odatiy va shartnomaviy meʼyorlari boʻyicha xalqaro huquqqa zid qilmishlari, qurolli mojaro, shu jumladan, Xojali shahridagi ziddiyat sharoitida uyushtirilgan ayrim harakatlar uchun davlat sifatida, mazkur aktda bevosita ishtirok etganlar, ularning hamtovoqlari va homiylari ham individual tarzda javob berishi kerak. Yaxshi maʼlumki, Armanistonning amaldagi va sobiq rahbarlari – Serj Sargsyan va Robert Kocharyan – mazkur davlat hamda Armaniston tomonidan Ozarbayjonning bosib olingan hududlarida oʻrnatilgan ayirmachi rejimning boshqa koʻplab oliy martabali siyosatchilari va harbiylari bilan birgalikda Ozarbayjon yerlarini egallab olish, uning harbiy hizmatchilari va tinch fuqarolarini yoʻq qilish operatsiyalarida shaxsan ishtirok etishgan. Ushbu shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar miqyosi va ogʻirligini hisobga olganda uning oqibati muqarrar jinoiy taʼqib etish bilan tugashi lozim.

Ozarbayjon hududidagi bosqini va harbiy ishtirokini rad

etish bilan birga rasmiy Yerevan bor kuchi bilan Xojalidagi ommaviy qotilliklarni ham ozarbayjonliklarning o'ziga ag'darishga urinmoqda, go'yoki ularning o'zi tinch aholini jangovor harakatlar hududidan evakuatsiya qilishiga to'sqinlik qilishgan, bundan ham yomoni ko'p sonli talofatlardan o'z siyosiy maqsadlari yo'lida foydalanish uchun o'z vatandoshlarini o'zlari otishgan deb ayblashadi.

Biroq turli manbalardan, jumladan, guvohlar, hukumat, davlatlararo va nohukumat tashkilotlardan Xojalida sodir etilgan jinoyat mas'uliyati Armaniston, uning siyosiy va harbiy rahbariyati, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi ayirmachi qurolli guruhlar zimmasida ekanini tasdiqlovchi fakt va ma'lumotlar yetarli.

Xususan, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi o'zining 2010 yilning 22 apreldagi qarorida shunday deydi:

«Mustaqil manbalardan olingan xabarlargap ko'ra, 1992 yilning 25 fevralidan 26 fevraliga o'tar kechasi Xojalini egallab olish chog'ida etnik ozarbayjonlik bo'lgan yuzlab fuqaroviy shaxslar ishg'ol etilgan shaharni tark etishga urinish chog'ida shaharga hujum qilgan arman jangarilari tomonidan o'ldirilgan, yarador qilingan yoki garovga olingan».

O'z kitobini akasi, xalqaro terrorchi Monte Melkonyanga bag'ishlangan arman muallifi Markar Melkonyanning yozishicha, shahar «strategik maqsad bo'lgan, biroq uning ishg'ol etilishi qasos akti bo'lgan». Melkonyan «Arabo» va «Aramo» deb nomlangan arman qurolli bo'linmalari jangarilarining alohida rolini qayd etadi. Ular Xojalining tinch aholisini qanday qirg'in etganlarini batafsil tasvirlaydi. U jumladan, deyarli olti milni bosib o'tgan, deyarli xavfsiz joyga yetib olishga muvaffaq bo'lgan ayrim oddiy odamlarga arman askarlari yetib olganini yozadi. Muallifning yozishicha, «askarlar uzoq vaqtdan beri kamarida osig'liq turgan pichoqlarini ishga tushirishgan». (Markar Melkonian, *My Brother's Road: An American's Fateful Journey to Armenia* (London and New York, 2005), 213-214 betlar).

Xojalidagi voqealar Armanistonning amaldagi prezidenti Serj Sargsyan noqonuniy ayirmachi rejimning «O'zini o'zi mudofaa qilish kuchlari qo'mitasi» ni boshqargan kezlarda

ro'y bergan bo'lib, uning esdaliklari eng muhim dalillardan biri hisoblanadi. Serj Sargsyaning quyidagi so'zlari Xojali jinoyatini kim sodir etgani borasidagi qarashlarga hech qanday shubha qoldirmaydi:

«Xojaligacha ozarbayjonliklar bularning barini hazil, armanlar fuqaroviy aholiga qarshi qo'l ko'tarolmaydi, deb o'ylashgan. Biz bu qolip fikrni rad etishga muvaffaq bo'ldik. Aynan shunday bo'lib chiqdi» (Thomas de Waal, Black Garden: Armenia and Azerbaijan through Peace and War (New York and London, 2003), 172 bet).

Jurnalistning yuzlab odamlarning o'limiga achinasizmi, degan savoliga javob berar ekan, janob Sargsyan hech xijolatsiz shunday dedi: «Men mutlaqo afsus chekmayman», zero, «bunday iztiroblar hatto minglab odamlarning hayoti kun tartibida tursa ham zarur». Armanistondagi eng oliy siyosiy va harbiy lavozimni egallab turgan inson tilidan bunday so'zlarning yangrashi mojaro chog'ida tinch ozarbayjonliklarga qarshi sodir etilgan jinoyat uchun aynan Armaniston javobgarligini va rad etib bo'lmas dalillar mavjudligini ko'rsatadi.

BMT Bosh Assambleyasining 1946 yil 11 dekabrda 96 rezolyutsiyasida ko'rsatilganidek, genotsid odamlar guruhining yashashga bo'lgan huquqini tan olmasligi bilan inson qadriyatini haqoratlaydi, insoniyatni odamlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklardan mahrum etadi. Bunday harakatlar BMT maqsad va vazifalariga to'laligicha zid. «Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida»gi 1948 yil 9 dekabrda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan, 1961 yilda kuchga kirgan rezolyutsiya bilan qabul qilingan Konventsiyada genotsid jinoyatining huquqiy asosi mustahkamlab qo'yilgan. Konventsiyaga qo'shilgan davlatlar genotsid oldini olish, uning aybdorlarini jazolash majburiyatini o'z zimmlariga olib, genotsid tinch yoki harbiy vaqtda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, xalqaro huquqning me'yorlarini buzuvchi jinoyat hisoblanishini tasdiqladilar. Xojalida sodir etilgan razil jinoyat xususiyati va miqyosining ko'rsatishicha, uni amalga oshirishda mazkur Konventsiyada aks etgan genotsid jinoyatini tashkil etgan barcha harakatlar kuzatilgan.

Armaniston tomonidan urush vaqtidagi ahloq me'yorlarini belgilovchi xalqaro huquqiy normalarni rad etish bilan bog'liq faktlar bular bilan cheklanmaydi. Xalqaro gumanitar huquq talablariga ko'ra, urush qurolli mojarodagi tomonlarning qurolli kuchlari o'rtasidagina olib borilishi kerak. Fuqaroviy aholi janglarda ishtirok etmasligi va unga hurmat ko'rsatilishi lozim. Jeneva Konventsiyasining «Urush chog'ida fuqaro shaxslarning himoyasi to'g'risida»gi uchinchi moddasiga ko'ra, tinch aholining hayoti va xavsizligiga qasd qilish, shu jumladan, turli usullar bilan qotillik qilish, mayib qilish, aholi bilan shafqatsiz muomalada bo'lish, qiynoq va azob yetkazish, inson qadr-qimmatini oyoqosti qilish, haqoratlash va aholiga kamsituvchi harakatlarni qo'llash ta'qiqlanadi. Konventsiyaning 33 moddasida ko'rsatilishicha, biror bir fuqaroviy shaxs u tomonidan sodir etilmagan huquqbuzarlik uchun jazolanishi mumkin emas. Bir vaqtning o'zida fuqaroviy aholiga qarshi kollektiv jazolovchi choralar qo'llash, uni qo'rqitish, unga nisbatan terrorchilik harakatlari va qatag'on uyushtirish man etiladi. Konventsiyaning 34 moddasiga ko'ra, shuningdek, tinch aholini garovga olish ta'qiqlanadi. Biroq armanlar Xojalida mingdan ziyod kishini garovga olib mazkur printsipga hurmatsizligini ochiq namoyish etdilar. Ushbu huquqiy normalarni rad etgan arman qurolli bo'linmalari Xojalining tinch aholisini yo'q qilish uchun shafqatsiz amallarga qo'l urdi. Yuqorida qayd etilgan harakatlar «Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida»gi Konventsiyada ko'zda tutilgan genotsid jinoyatini sodir etish shartlariga to'g'ri keladi.

Xojalini egallash chog'ida Ozarbayjonning tinch fuqarolariga qarshi aqlga sig'mas vahshiyliklarni amalga oshirgan shaxslar bu bilan Jeneva konventsiyasi, «Inson huquqlari to'g'risidagi umumiy deklaratsiya»ning 2, 3, 5, 9 va 17 moddalari talablarini, «Favqulodda holatlarda va harbiy mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risida»gi Konventsiya, «Genotsid jinoyati oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risida»gi Konventsiya talablarini qo'pol ravishda buzganlar hanuzgacha jazolanmadi. Jazosizlik esa yangi jinoyatlarni amalga oshirish uchun asos yaratmoqda.

Armaniston sodir etilgan vahshiylikdan chekinmayapti, aksincha, vijdotsizlarcha ozarbayjonliklarga qarshi amalga oshirilgan genotsidni oqlamoqda, tashkilotchilar milliy qahramonlar sifatida ko'klarga ko'tarilmoqda. Armanistonda Ozarbayjonga qarshi ochiq siyosat o'tkazilmoqda, davlat miqyosida Ozarbayjonning yangi yerlarini egallashga oid g'oyaviy asoslar yaratilmoqda. Soxtalashtirilgan armanlar tarixi arman yoshlarini shovinizm ruhida tarbiyalash uchun asos yaratish maqsadida davlat siyosati darajasiga chiqarilayotganini ta'kidlamoq joiz.

Qanchalar g'alati tuyulmasin, bir qator mamlakatlar parlamentchilari Xojali fojiasiga o'xshash real genotsidga ko'z yumib, «armanlar genotsidi» to'g'risidagi afsonani muhokamalar predmetiga aylantirish, tarixiy haqiqatga befarqlik, e'tiborsizlik bilan yondoshish orqali bu borada hatto adolatsiz qaror chiqarishga ham ulgurдилar. Aynan shu omillar to shu kungacha arman tomonining aybi bilan Tog'li Qorabog'ga oid arman-ozarbayjon mojarosining tinch yo'llar bilan yechish urinishining samarasizligi sabablaridan biridir.

Go'yoki «armanlar genotsidi» sodir etilgan 1915 yildagi voqealarni yildan-yilga bo'rttirish, targ'ib-tashviq etish bilan mashg'ul bo'lgan arman tarixchi va siyosatchilari jahon jamoatchiligi e'tiboridan ozarbayjonliklarning ommaviy qirg'in etilishi hodisasini o'chirib tashlashga, ularni chalg'itishga zo'r bermoqda. Ozarbayjon yerlari hanuz bosqin ostida. Arman jallodlari o'zining ochko'z maqsadlari yo'lida aybsiz odamlarni shafqatsiz qirdi. Shu bois jahon hamjamiyati Xojali fojiasini genotsid va insoniyatga qarshi jinoyat sifatida e'tirof etmog'i lozim. Bunga o'xshash jinoyatlar qaytarilmasligi uchun. Isroil Prezidenti Reuven Rivlin BMT Bosh Assambleyasida Xolokost (yaxudiyarga qarshi genotsid) qurbonlariga bag'ishlangan marosimdagi chiqishida Xojali fojiasini dunyoda sodir etilgan genotsid va ommaviy qotilliklar bilan bir qatorda tilga olgani va qirg'inlarga baho berishda va jinoyatchilarga jazo berishda xalqaro hamjamiyat o'z bo'lib qolayotgani bejiz tilga olmadi.

Isroil tashqi ishlar vazirligi saytining xabar berishicha, antisemitizm, shovinizm va insoniyatga qarshi jinoyat mavzusini ilgari surgan Isroil prezidenti xalqaro hamjamiyat haddan

ziyod ko'p ko'z yosh to'kayotgani, ammo kam ishlayotganini ta'kidladi.

«Bugun biz o'zimizdan so'rashimiz kerak, bugungi As-sambleyaning genotsidga qarshi kurashga kuchi yetarlimi? Bosniyadagi genotsidning oldini olish uchun bu kurash yetarli darajada samarali bo'lganmi? Xojalida odamlarning halok bo'lishi oldini olishda bu samarali bo'lganmi? Afg'onlarning «Tolibon» tomonidan o'ldirilishi oldini olishdachi? Bu kurash bugun Suriyada yetarlimi? «Boko Xaram» tomonidan Nigeriyada sodir etilgan jinoyatlarning oldini olish uchun yetarlimi? Biz juda ko'p ko'z yosh to'kmoqdamiz, ammo oz ishlayapmiz» – deydi Rivlin.

Mojaroning tarixiy ildizi

1813 va 1828 yillarda Rossiya va Eron o'rtasida Guliston va Turkmanchoy, Rossiya va Turkiya o'rtasida Andrianopol shartnomalari imzolanishi va tarixiy Ozarbayjon hududlarining sun'iy ravishda ajratilishi bilan armanlarning Eron va Turkiyadan ommaviy ravishda ozar yerlariga ko'chib kelishi boshlandi. Tub aholi esa sun'iy ravishda qochoqqa va majburiy ko'chmanchiga aylandi. Armanlar «Buyuk Armaniston» qurish rejalarini bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishdi. Avvaliga Ozarbayjon yerlarida, aniqrog'i sobiq Irevan (Yerevan) xonligi hududida katta bo'lmagan arman respublikasini (9, 7 ming kvadrat kilometr) tuzib, asta-sekin 29, 8 ming kvadrat kilometrli hududga aylantirdilar. 1905-1907 yillarda arman millatchilari ozarbayjonliklarga qarshi bir qator keng qamrovli zo'rvonlik harakatlarini amalga oshirishga kirishdi. Qonli xunrezliklar Bokuda, shuningdek, butun mamlakat va hozirgi Armaniston hududidagi Ozarbayjon qishloqlarida yuz berdi. Yuzlab manzilgohtar yer yuzidan supurib tashlandi, minglab tinch fuqarolar shafqatsizlarcha o'ldirildi.

Armanlarning Ozarbayjon yerlariga, shu jumladan, Tog'li Qoraboqqa da'vosi ularning buyuk davlatini qurishdek strategik rejasining bir qismi sanaladi. O'z «an'ana»lariga sodiq qolar ekan, har qanday imkoniyat bo'lishi bilan rejalarini amalga oshirishga intilishdi.

Xususan, Rossiyada Birinchi jahon urushining oxirgi yilida yuzaga kelgan vaziyat, ya'ni 1917 yilgi Fevral va Oktyabr inqilobidan foydalangan arman millatchilari bosqinchilik rejasini bolshevizm bayrog'i ostida davom ettirishga kirishdi. Aksilinqilobiy unsurlarga qarshi kurash bahonasida 1918 yilning martida Boku, Shemaxin va Guba tumanlarida, shuningdek, Qorabog', Zanguzar, Naxichevan, Lyankyan va boshqa tumanlarda ozarbayjonliklarning ommaviy tarzda qirg'ini boshlandi. Ushbu mintaqalardagi qonli hodisalarda minglab begunoh fuqarolar o'ldirildi, qishloqlar tag tugi bilan yoqib yuborildi, yodgorliklar vayron etildi.

1920 yil oxirida Armanistonda sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan arman millatchilari ixtiyorida boshqa xalqlar hududlarida

arman davlatini tuzishdek tarixiy imkoniyat paydo bo'ldi. 70 yillik Sovetlar boshqaruvi davrida armanlar Ozarbayjon hisobiga o'z hududini kengaytirishga, ozarbayjonlarni o'z yerlaridan quvib chiqarishga erishdi. Xususan, 1920 yilda Zangezur va borshqa qator yerlar Armaniston Sovet Sotsialistik Respublikasining yerlari deb e'lon qilindi. 1923 yilda esa Ozarbayjon SSRning tarkibida bo'lgan Tog'li Qorabog'ga muxtoriyat maqomi berilishiga erishishdi. Vaholanki, Armaniston hududida, ayniqsa Zangezur mintaqasidagi ko'pchilikni tashkil etgan ozarlar ham muxtoriyat maqomini olishga haqli edi.

1985 yilda M. Gorbachyov Sovet Ittifoqi rahbari etib saylanganidan so'ng armanlar uning o'zlariga xayrixoxligidan foydalanib yana da'volarini kuchaytirishdi. Gorbachevning Tog'li Qorabog' muxtor viloyati bilan bog'liq mahfiy rejasini amalga oshirish yo'lidagi birinchi qadami Siyosiy byurodan bu yo'ldagi eng kuchli to'siq Haydar Alievning ishdan olib tashlashi bo'ldi. Sal keyinroq, 1987 yilning noyabrida Gorbachev komandasiga kirgan arman akademigi A. Aganbekyan Parijda bergan bayonotida Tog'li Qorabog' bo'yicha o'z taklifini sovet rahbariyatiga taqdim etganini, qayta qurish va demokratiya sharoitida mazkur muammoning yechilishiga umid qilishini ma'lum qildi. Ilgariroq mahfiy ravishda harakat qilgan armanlarning «Qorabog' qo'mitasi», uning ayirmachiterrorchi tashkiloti «Krunk» («Turna») endilikda ochiq faoliyat yurgizishga o'tib «Miattsum» («Birlashma») harakatini tuzdi.

1988-1991 yillarda ozarbayjonlarning Armaniston hududidan haydab chiqarishshga qaratilgan etnik tozalash siyosati vaxshiylik va shafqatsizlik bilan amalga oshirildi. 250 ming ozarbayjonlik o'ining tarixiy joyidan quvildi, bir zumda qochoqqa aylandi.

1988 yilning fevralidan voqealar agressiv o'zanga ko'chdi. Yerevan va Stepanakertda ayirmachilar va arman millatchilarining mitinglari to'loqini ro'y berdi. 20 fevral kuni Tog'li Qorabog' muxtor viloyati Kengashi sessiyasi Ozarbayjon SSR Oliy Sovetiga viloyat maqomi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish iltimosi bilan murojaat qildi. O'z homiylarining yordamiga umid qilgan armanlar yana Ozarbayjonning ajralmas

qismi Tog‘li Qorabog‘ni Armanistonga qo‘shilishi to‘g‘risidagi mavzuni ko‘tardi.

1988 yilning fevral hodisalaridan keyin Tog‘li Qorabog‘ viloyatining ayirmachi-terrorchi guruhleri va Armaniston qurolli kuchleri hududni egallab olish maqsadida harbiy harakatlarni boshladi. Armaniston va Tog‘li Qorabog‘da joylashgan SSSR qurolli kuchleri qismlari ham ular safiga qo‘shildi. Shunday qilib, Ittifoq tarqagach yana 1917 yil fevral oyida chor hukumati qulashi natijasida yuzaga kelgan tarixiy hodisaga o‘xshash vaziyat yuzaga keldi. Sovet armiyasi safida xizmat qilgan zobitlar va sobiq sovet harbiy qismlari ozarbayjonliklarga qarshi birlashib yagona front ostida harbiy harakatlarni boshladi.

Avvaliga Tog‘li Qorabog‘dagi ozarbayjonliklarning aholi punktlari egallandi. 1992 yilning 15 yanvarida Kerkijaxon qishlog‘i, 10 fevral kuni Malibeyli, Gushchular qishloqlari qo‘lga kiritildi, tinch va qurolsiz aholini qirg‘in qilish boshlandi, Xojali va Shusha atrofidagi halqa torayib bordi. Fevral o‘rtasida arman va sovet harbiy bo‘linmalari Garadagli qishlog‘iga bostirib kiradi. 25 dan 26 fevralga o‘tar tunda zamonaviy tarixdagi eng dahshatli voqealar yuz berdi.

Arman harbiy guruhleri Xojalida ozarbayjonliklarga qarshi mudhish genotsidni sodir etdi. Bu ikkinchi jahon urushidan keyingi arman ayrimachi-terrorchilari tomonidan insoniyatga qarshi sodir etilgan eng qo‘rqinchli va ommaviy qirg‘inlardan biri bo‘ldi.

Milliy hokimiyatdagi bo‘shliq Ozarbayjon Respublikasining mudofaa qobiliyatini yanada zaiflashtirib yubordi. Natijada 1992 yilning mayida arman harbiy birlashmalari madaniy meros ob‘ekti sanalmish Shusha shahrini ishg‘ol qildi. Bu armanlarning deyarli butun Tog‘li Qorabog‘ ustidan nazoratini anglatardi. Armanistonni Tog‘li Qorabog‘ bilan bog‘lovchi Lochinning bosib olinishi navbatdagi qadam bo‘ldi. Bokuda hokimiyat uchun kurash borayotganidan foydalangan armanlar Lochinni egallashdi.

1993 yilning aprelida Kelbajar ishg‘ol etildi. Iyun oyiga kelib Ozarbayjonda chuqur siyosiy tanglik bo‘y ko‘rsatdi. Ozarbayjonga qarshi urushni davom ettirar ekan 1993 yilning

iyul-oktyabr oylarida armanlar Agdam, Fizuliy, Jabrail, Gubali va Zangilanni ham bosib oldi. Bosqinchilar egallangan yerlarni vayron qilish taktikasiga o'tdi. Urushda 20 ming kishi o'ldirildi, 100 ming ozarbayjonlik jarohatlandi, 50 ming inson nogiron bo'lib qoldi. Qochoqlar soni bir milliondan oshdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, armanlar 4852 nafar ozarbayjonlikni, shu jumladan, 323 nafar ayol, 54 nafar bolalar, 410 nafar yoshi katta kishilarni asirga olgan. Bosqinchilar xalqaro gumanitar tashkilotlardan asirlar va garovdagilarning chinakam sonini berkitishdi, ular bilan noinsoniy va shafqatsizlarcha muomalada bo'lishdi, ularni kamsitib, qullarcha mehnat qilishga majburlashgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ozarbayjonga qarshi adolatsiz urush olib borilganini, uning hududiy yaxlitligi buzilgani va ozarbayjon yerlari armanlar tomonidan bosib olinganini tasdiqladi. BMT Xavfsizlik Kengashi arman quroli kuchlarining bosib olingan Ozarbayjon hududlarini bo'shatib qo'yishini talab qiluvchi to'rtta qarori (№№ 822, 853, 874, 884) qabul qilingan. Biroq bosqinchilar bu rezolyutsiyalarni bajarishdan bosh tortmoqda. Arman jangarilariga qarshi kurashda Ozarbayjon harbiy-iqtisodiy va insoniy kuchlarini safarbar etishga muhtojlik sezardi. Shu maqsadda 2 noyabrda prezident Haydar Aliev televideniya va radio vositasida xalqqa murojaat qildi, jiddiy harbiy-tashkiliy choralar ko'rildi. Natijada Ozarbayjon xalqining dushmanga qarshi adolatli kurashida burilish yuz berdi. Noyabr o'rtalarida arman qurolli kuchlarining Beylagan yo'nalishidagi yurishi to'xtatildi. Ozarbayjon armiyasining muvaffaqiyatli operatsiyasi natijasida 1994 yilning 5 yanavrida strategik jihatdan muhim qishloq Goradiz va Fizuliy tumanining 22 ta qishlog'i dushmandan ozod etildi. Keyin Jarbail tumani hududining bir qismi dushmandan tozalandi.

Ozarbayjonning urushda tub burilish yasashi, bosib olingan hududlarning ozod etilishi nafaqat Armanistonni, balki uning ittifoqchilarini ham xavotirga solib qo'ydi. Armanistonning homiylari tomonidan harbiy jihatdan kuchaytirilishi, uni zamonaviy qurollar bilan ta'minlanishi mintaqada reaktiv kuchlarning oshishiga xizmat qildi. Natijada 1994 yilning

8 mayida Ozarbayjon Respublikasi Bishkek protokolini imzoladi. Ozarbayjonning dushman ustidan qozongan harbiy muvaffaqiyati tufayli 12 mayda frontda o't ochishni to'xtatish to'g'risidagi kelishuv imzolandi.

Ozarbayjonga qarshi bosqinchilik urushi davomida Armaniston Ozarbayjon va Eron o'rtasidagi chegaraning 198 km. ni o'z nazoratiga oldi, Ozarbayjonning 360 km. li chegarasini buzib, uning 20 foizga yaqin yerlarini bosib oldi.

Ozarbayjonning 10 ta ma'muriy tumani – Xojavand, Xojali, Shusha, Lochin, Kelbajar, Agdam (katta qismi), Jabrail, Fizuliy (qisman), Gubali va Zangelan hamda Armaniston bilan chegaradosh boshqa tumanlarning aholi punktlari bosib olindi.

Ozarbayjon aholi jon boshiga hisoblaganda ko'chirilgan shaxslar ulushi yuqoriligi bo'yicha dunyodagi yagona mamlakat. Mutloq raqamlarda ehtimol ularning soni Afg'oniston yoki Kongodagidan ko'proq, ammo Ozarbayjonda har o'ninchi kishi Qorabog' urushi tufayli o'z uy-joyidan mahrum etilgan. 1988-1989 yillarda 200 ming kishi Armanistondan Ozarbayjonga qochib o'tgan. So'ngra, 1992-1994 yillarda Tog'li Qorabog' va unga tutash 7 ta tumandan yarim milliondan ziyod inson qochib o'tgan.

To'g'ri, Ozarbayjon hukumati ularning deyarli barchasini boshpana bilan ta'minladi. Ammo har kim o'z tug'ilgan Vatanida yashashni istaydi. Arman-ozarbayjon mojarosi zamonaviy urushlar ichida eng umidsizi emasdir, biroq u yomon tinchlikni dunyoga keltirdi. Harbiy harakatlar yakunlanganidan so'ng mintaqada qashshoqlik hukm surmoqda. Armanistonda aholining 80 foizi kashshoqlik ostonasida kun kechiradi. Armanistonni yosh, iqtisodiy faol, oliy ma'lumotli fuqarolar tirikchilik ilinjida tark etmoqda.

Ozarbayjon tarkibidagi muxtor respublika – Naxichevan mamlakatning asosiy qismidan ajralib qolgan. Armaniston, Turkiya va Eron o'rtasida qisilib qolgan respublika tashqi dunyodan uzilib qolgan. Naxichevanga yetib olish mushkul ish. U yerga yoki Boku orqali uchish kerak yoki mashinada sharqiy Turkiya yoda Erondan yetib olish mumkin. Shunda ham chegarani kesib o'tayotganingizda bojxonachilarga yetarli summani to'lashingizga to'g'ri keladi. Naxichevan shaxri

Moskva-Tehron temir yo'l magistralida yirik ulovchi stantsiya bo'lgan. Amalda, o'zining Rossiya va Eron, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi jo'g'rofiy holatiga ko'ra, butun Yaqin Sharqning bosh temir yo'l bo'g'iniga aylanishi mumkin edi. Aksincha, arman chegarasining yopiqligi hisobiga boshi berk shaharga aylandi.

Xojali shahrida sodir etilgan jinoyatning xuusiyati va qamrovi genotsid akti «Genotsid jinoyatidan ogohlantirish va buning uchun jazolash to'g'risida»gi 1948 yil 9 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 260 (III) nomerli Konventsiyada bayon etilgan ta'rifga to'la mos kelishini ko'rsatadi. Oldindan rejalashtirilgan ommaviy va shafqatsiz mahv etish akti mazkur hududdagi odamlar aynan ozarbayjonliklar bo'lgani uchun to'laligicha yo'q qilishni maqsad qilgan. Vahshiylashgan jallodlar odamlarning terisini shilishgan, turli organlarini kesishgan, go'daklarning ko'zlarini o'yishgan, homilador ayollarning qorinlarini yorishgan, odamlarni tiriklayin ko'mishgan yoki yoqib yuborishgan, jasadlarni minalashtirishgan. Yonayotgan shahardan qochishga yoki qutulishga uringan odamlarga shafqat qilinmagan, arman harbiy xizmatchilari yo'llar, o'rmonlarda pistirmalar o'rnatib, tinch odamlarni o'ta shafqatsizlik bilan o'ldirishgan. Ma'lumki, cheklangan jo'g'rofiy hududda bunday qilmishlar sodir etilgani uchun sobiq Yugoslaviyadagi hodisalarni Xalqaro jinoiy tribunal genotsid harakati sifatida e'tirof etgan.

Bosib olingan hududlarda bosqinchilar o'ta shafqatsizlik bilan Ozarbayjon tarixiy-madaniy merosini tashkil etgan ob'ektlarni yo'q qilishdi. Egallab olingan hududlarda vandalizm aktini sodir etgan holda ular 500 ga yaqin tarixiy va 100 dan ziyod arxeologik yodgorliklarni, 22 ta muzey va 4 ta kartina galereyalari, tarixiy ahamiyatga molik 9 ta saroyni talashgan va yoqib yuborishgan. 44 ta ibodatxona va 9 ta masjidni tahqirlashgan. Shushadagi noyob masjid cho'chqaxonaga aylantirilganini qanday baholash mumkin? Vayron etilgan va yoqib yuborilgan 927 ta kutubxonada 4, 6 million kitob va bebaho qo'lyozmalar yo'q qilindi.

Arman millatchiligiga ommaviy qarshilik ko'rsatish harakati Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi

Haydar Alievning hokimiyatga qaytishi bilan boshlandi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining 1998 yil 26 martdagi «Ozarbayjonliklarning genotsidi to'g'risida»gi farmoni tarixiy haqiqatni tiklashga kuch bag'ishladi. Ushbu muhim hujjatda mamlakat tarixida birinchi marta ozarbayjonliklarga qarshi sodir etilgan ommaviy shafqatsizliklar – genotsidlar rasman tilga olindi. Bu xalqqa qarshi Janubiy Kavkaz miqyosida o'tkazilgan etnik dushmanlik siyosatining ildizlari fosh etildi. Farmon asosida so'nggi 100 yil mobaynda ozarbayjon xalqiga qarshi arman millatchilari tomonidan sodir etilgan vahshiyliklar qurboniga aylangan begunoh insonlar xotirasiga hurmat belgisi sifatida 31 mart ozarbayjonliklarga qarshi uyushtirilgan genotsid kuni sifatida e'lon qilindi.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliev genotsid munosabati bilan bir necha bor xalqqa murojaat qildi, Xojali fojiasini insoniyatga qarshi eng yovuz va shafqatsiz ommaviy terrorchilik harakati sifatida baholadi. Davlat rahbarining farmoyishi bilan 2017 yil Xojali genotsidining 25 yilligi nishonlandi.

Milli Majlisning 1994 yil 24 fevraldagi qarori asosida 26 fevral Xojali genotsidi kuni deb e'lon qilindi, bu haqda xalqaro tashkilotlar xabardor etildi. Davlat Xojali shahidlari xotirasini abadiylashtirish borasida qator choralarga qo'l urdi. Poytaxt Boku va mamlakatning boshqa shahar hamda qishloqlarida Xojali qurbonlariga yodgorliklar o'rnatildi, o'rta maktablar o'quv dasturlariga Xojali fojiasi to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan.

Xorij matbuoti Xojali qirg'ini haqida

«Krua P'Eveneman» jurnali (Parij), fevral 1992 yil: «Armanlar Xojaliga hujum qilishdi. Butun dunyo ommaviy jasadlarning guvohi bo'ldi».

«Sunday Times» (London) gazetasi, 1992 yil 1 mart: «Arman askarlari minglab oilalarni yo'q qilishdi».

Livanlik kinooperator mamlakatning boy dashnoq jamoasi Qorabog'ga qurol va odamlar jo'natayotganini tasdiqladi.

«Times» (London) gazetasi, 1992 yil 4 mart: «Ko'plari jiddiy shikastlangan, birgina jajji qizaloqdan faqat bosh qism qolgan».

«Izvestiya» (Moskva), 1992 yil 4 mart: «...Xojali shahri prokurori Atakishi Atakishiev tomonidan brifingda berilgan bayonot fojining yana bir tomonini fosh etdi. 25 fevralgacha dedi u, arman bo'linmalari shaharni olish holatida emasdi. Bo'linmalar, birinchi navbatda 366-polk qo'shilganidan so'ng ular bundan foydalandilar.

366-polkdan qochib ketgan to'rt askar, Yuriy Yaxovich, Aleksey Bondarev, Pavel Antipin va Pavel Zuevning hikoyalari ham shundan dalolat beradi. Garchi ular o'z qismlarini Xojali voqealarigacha tashlab chiqishgan bo'lsada, ammo 366-polkning ozarbayjon qishloqlarida yashovchilarga qarshi jangovor harakatlarda ishtirok etganiga doir ko'p sonli misollarni keltirishdi. A. Bondarevning hikoya qilishicha, o'tgan yilning kuzidan boshlab polk zobitlari tunda BTRlarni to'liq jangovor komplektlari bilan qismdan olib chiqib «tungi navbatchilik»ka ketishgan. Ertalab ular «bo'sh» qaytishar, barcha o'q-dorilar sarflab bo'linardi... Askarlarning so'zlariga ko'ra, ular bilan muayyan «g'oyaviy ish» olib borishgan. «Qulog'imizga biz nasroniy ekanimizni, musulmonlarga qarshi kurashishimiz kerakligini quyishardi, – deydi Yu. Yaxovich; – Bizni noinsoniy sharoitlarda saqlashardi. Bunga chidolmay polkni tark etishga va Xojaliga qochib ketishga majbur bo'ldik».

«Izvestiya» (Moskva), 1992 yil 5 mart: «...Tasvirlar jang maydonida halok bo'lgan askarlarni emas, balki tinch fuqarolarning o'zini ko'rsatmoqda. O'nlab va o'nlab otilganlar 2 dan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar, ayollar, qariyalar. Marhumlarning turgan joyi odamlarni sovuqqonlik va aniqlik bilan o'ldirilganidan dalolat bermoqda, hech qanday kurash, qochish alomatleri yo'q. Mualliflik izohiga qaraganda, kimnidir chetga olib o'tib alohida otishgan, ko'plarni oilalari bilan, barchasini birdaniga yo'q qilishgan. Ayrim jasadlarda bir necha jarohatlar ko'rinib turibdi, ulardan bittasi albatta boshda – demak yaralanganlarni o'ldirib qo'ya qolishgan.

Kamera bir necha qulog'i kesilgan bolalarni suratga olgan. Qariya ayolning chap yuz qismi terisini kesib olishgan. Erkaklarning terisi shilingan».

«Financial Times» (London) gazetasi, 1992 yil 14 mart: «General Polyakovning aytishicha, 366-polkning 103 nafar harbiy xizmatchisi Tog'li Qorabog'da qolgan».

«Le Mond» (Parij) gazetasi, 1992 yil 14 mart: «Agdamdagi xorijiy jurnalistlar Xojalida o'ldirilgan ayollar va bolalar jasadlari orasida uchta terisi shilingan, tirmoqlari sug'urilganlarni ko'rishgan. Bu Ozarbayjon tashviqoti emas, balki reallik».

«Izvestiya» (Moskva), 1992 yil 13 mart: «Mayor Leonid Kravets: men o'z ko'zlarim bilan balandlikda yuzga yaqin murdalarni ko'rdim. Bolalardan birining boshi yo'q edi. Har yonda o'ta shafqatsizlik bilan o'ldirilgan ayollar, bolalar, qariyalarning jasadlari ko'rinib turardi».

«Valer aktuel» (Parij) jurnali, 1992 yil 14 mart: «Ushbu muxtor mintaqada arman jangovor bo'linmalari Yaqin Sharqdan chiqqan jangarilar bilan birgalikda zamonaviy harbiy texnikaga, shu jumladan, vertolyotlarga ega. ASALaning Suriya va Livanda harbiy lagerlar va qurol-yarog' omborlari bor. Armanlar yuzdan ziyod musulmon qishloqlarida qirg'in uyushtirib Qorabog' ozarbayjonlarini yo'q qildi.

Xojali aholisi bilan uchrashgan jurnalistlar.

Washington Post, 28 fevral, 1992 yil
Tomas GOLS, Agdam

Tog'li Qorabog'ning g'arbida joylashgan urush holatidagi ushbu shahar bosh masjidining xizmatchilari chorshanba kuni armanlar tomonidan bosib olingan hududdan keltirilgan 17 kishi jssadi bugun dafn etilganini aytishdi. Xojali shahridan kelgan qochoqlarning hikoya qilishicha, hujum chog'ida 500 kishi, shu jumladan, ayollar va bolalar o'ldirilgan. Agdam masjidi imom xatibi Said Sadigovning aytishicha, chorshanbadan bugungi kungacha Xojali shahridan bo'lgan qochoqlar uning masjidiga 477 murdani keltirishgan...

Tog'li Qorabog'dan bu yerga qochgan qochoqlar orasida Sovet ichki ishlar qo'shinlarida xizmat qilgan turkman askarlar bor edi. Ular o'zlarining harbiy qismlarini o'tgan juma kuni tark etib, Xojalida qo'nim topishgan. Askarlarning aytishicha, arman serjantlari ularni «musulmon bo'lganlari uchun kaltaklashgan».

Dezertirlar ularning sobiq harbiy qismi, 366-polk Xojalini egallab olgan armanlarni qo'llab-quvvatlaganini tasdiqlaydi. Ular shuningdek, ayollar va bolalarning qochishiga yordam berganliklarini ta'kidlashmoqda. Askarlardan biri, Agamaxmet Mutif shunday deydi: «Biz tog' orqali bir guruhni olib o'tdik. Bu yerda bizni ko'rib qolgan armanlar o't ochishdi. 12 kishi o'ldirildi».

Independent, 29 fevral, 1992 yil
Elen Vomak

Agdamdagi Reuters agentligi muxbiri Elif Kabanning xabar berishicha, chorshanba kuni armanlar tomonidan uyushtirilgan qonli qirg'indan so'ng ozarbayjonliklar mazkur viloyatning

kattaligi jihatidan ikkinchi yirik shahri Xojalida o'ldirilgan o'nlab odamlarni dafn etishdi. Dafnda ishtirok etganlardan biri jurnalistlarga qichqirardi: «Butun dunyo bu yerda yuz berayotgan voqealarga ko'z yumdi. Biz halok bo'layapmiz, sizlar esa kuzatayapsiz».

BBC Morning News, 07: 37, seshanba, 3 mart 1992 yil

To'g'ridan-to'g'ri efirda BBC muxbirining xabar berishicha, 100 dan ziyod ozarbayjonlik erkaklar, ayollar, bolalar, hatto go'daklar juda qisqa masofdan turib boshiga o'q uzib o'ldirilganini shaxsan ko'rgan.

BBC1 Morning News, 08: 12, seshanba, 3 mart 1992 yil

Hodisa joyida olingan fotosurat tog'dan ko'plab jasadlar yig'ib olinganini tasdiqlaydi. Muxbirning xabar berishicha, operator va g'arblik jurnalistlar armanlar tomonidan o'ldirilgan erkaklar, ayollar va bolalarning yuzdan ziyod jasadlarini ko'rishgan. Ular kamida bir metr masofadan turib boshidan otilgan. Ozarbayjonning ta'kidlashicha, arman qo'shinlari mingdan ziyod fuqaroviy shaxslarni yo'q qilishgan.

Vahshiylik Ozarbayjonni larzaga keltirdi

Brayan KILLYeN, Agdam, Ozarbayjon

...Ozarbayjonning Tog'li Qorabog'idagi ikkinchi yirik shahri Xojali o'tgan seshanba kuni tish-tirmog'i bilan qurollangan armanlar tomonidan egallab olinganidan so'ng armanlar ozarbayjonliklar genotsidini rad etmoqda. Ozarbayjonning da'vo qilishicha, 1000 kishi o'ldirilgan.

Tog'li Qorabog'dagi Ozarbayjon rahbari yordamchisi Asad Farajovning aytishicha, ayollar va bolalarning bosh terisi shilib olingan. Qolaversa, Xalqaro qizil Xoch qo'mitasi belgisi tushirilgan va unga hamrohlik qiluvchi MI-24 vertolyotlari qo'ngan joydan atigi 3 nafar bolalarning jasadini olishga muvaffaq bo'lgan xolos, negaki arman harbiylari ularga qarata o't ochgan.

Janob Farajovning xabar berishicha, ular qo'ngan joyda atigi 15 daqiqa bo'lishgan. Pidjagi cho'ntagidagi granataga ishora qilib u shunday dedi: «Harbiy vertolyotlar qizil olovli singallarni otib armanlarning yaqinlashib kelayotgani haqida xabardor qilardi. Ketishga majbur bo'ldik. Agar bizni asirga olishganida, o'zimni portlatib yuborishga tayyor edim».

Reuters agentligi fotomuxbiri Frederik Lengan Agdam yaqinida ikkita yuk mashinasi ozarbayjonliklar jasadiga to'lib toshganini ko'rganini aytadi: «Birinchi marta 35 jasadni sanadim, menimcha, ikkinchi mashinada ham shuncha jasad bor edi. Ayrimlarining boshi uzilgan, ko'plari yoqib yuborilgandi».

Agdam masjidi jasadlarga to'la edi. Odamlar Qorabog'ning ozarbayjon aholisini himoyalashga yetarlicha sa'y-harakat qilmagani uchun mamlakat prezidenti Ayoq Mutalibov sha'niga haqoratli so'zlarni aytishardi.

Ko'chalarda islomiy duolar o'qilar, odamlarning ayrimlari hushini yo'qotib o'ldirilgan qarindoshlari yoniga yiqilardi.

Qor bilan qoplangan tog' va tepaliklarga tarqalgan o'nlab jasadlarni namoyish qiluvchi qo'rqinchli film qochoqlarning ayollar va bolalarning butkul qirilgani haqidagi so'zlarini tasdiqlaydi.

Ozarbayjon televidiniyasi orqali Agdam shahriga yuk avtomobilida o'ldirilgan odamlarning jasadini qanday keltirish-

ganini ko'rsatishdi. Ulardan ko'pchiligining yuzi pichoq bilan qiymalangan, ko'zlari o'yilgandi. Kichkina qizchani qo'li havoda muallaq qolgandi. U go'yoki yordam so'rab hayqirayotgandi.

Agdamlik harbiy qo'mondon Rashid Mamedov fashistlarning ikkinchi jahon urushidagi jinoyatlarini eslaydi: «Murdalar xuddiki qo'ylar podasi kabi uyumlab tashlangandi. Hatto fashistlar ham bunday bo'lmag'ur ishlarni qilishmagandi».

Qorabog'ning Ozarbayjonlik rahbari Musa Mamedov mamlakatning ikkinchi eng yirik shahri Ganjadagi sovet harbiy bazasiga qo'ng'iroq qilib yordam so'radi: «Murdalarni keltirishga va qanday hodisa yuz berganini namoyish etishga yordam bering».

Tan olish kerak, Xojali fojiasi ko'lamini jahon afkor ommasiga yetkazishda Ozarbayjon milliy qahramoni, marhum telereportyor Chingiz Mustafoevning xizmati beqiyos. Aynan uning vdeolavhalari tufayli Ozarbayjon hozirgi kunda ham real fakt va dalillar asosida o'zining adolatli pozitsiyasini xalqaro maydonda himoya qilib kelayapti. Fojia ko'lamini tushunib yetishda o'z vaqtida Ch. Mustafoevning Xojali ijroiya hokimiyati rahbari Elman Mamedovdan olgan intervyusini o'quvchiga yetkazishga qaror qildim.

Elman Mamedov:

«Armanlar tomonidan Xojali ishg'oli 1991 yil avgust oyi oxiridan boshlangandi. O'sha paytgacha tashabbus bizning qo'limizda edi. Biz qurdik, barpo qildik va yaratdik. Sezilarli ustunligimiz bor edi. Garchi kuzatuv ostida bo'lsada, Xankendiga harakat amalga oshirilardi. Armanlar kuchimizni, ustunligimizni sezishardi. Biroq keyin qandaydir kuch negadir respublikada shunday o'yinni avj oldirdiki, Tog'li Qorabog'da to'laligicha tashabbusni berib qo'ydik. Ozarbayjon qishloqlari navbati bilan xuvillab yona boshladi, aholi yo'q qilina boshladi. Shunisi g'alatiki, respublika hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, umuman barcha mas'ul tizimlar yuz berayotgan hodisalarga befarqlik bilan, panja ortidan qaray boshladi. Go'yoki hammasi shunday bo'lishi kerakdek. Qonli fojidan oldingi so'nggi kunlar vertolyotlar Ganjadan Xojaliga yonilg'i, non, oziq-ovqat keltirishdi. Mazkur vertolyotlar

yordamida 300 nafarga yaqin ayollar, bolalar va kasallarni ko'chirishga muvaffaq bo'ldik. Allohga shukr, o'shanda ularni olib chiqishga erishdik. O'sha paytgacha Xankendidida tashkiliy qo'mita ham yomon ishlamasdi. Qo'mitaning ketishi bilan tashabbusni yo'qotdik. Uning ortidan qurilish ishlari, ta'minot to'xtadi. Vazirlikning mahalliy tuzilmalari ham asta-sekin g'oyib bo'la boshladi. Xojaliga oxirgi marta avtomobil harakati 30 oktyabrda amalga oshirildi. 1 noyabryadan 25 fevralgacha qamaldagi shahar bilan yagona aloqa vositasi vertolyot bo'lib qoldi. Shu ham ayrim hollarda. Xojaliga fuqaroviy vertolyotlar oxirgi marta 28 yanvarda qo'ndi. 4 va 5 fevral kunlari harbiy vertolyotlar bizga non yetkazib berdi. Vertolyotlar shuningdek, 9 fevral kuni ham, oxirgi marta 13 fevralda tashrif buyurdi. 13 fevraldan e'tiboran, ko'p sonli iltimosimizga qaramay, hech kim kelmadi. Bizga har kuni bugun-erta yo'l ochilishi borasida va'da berishardi»... Ammo hammasi yolg'on edi. Biz tashqi dunyodan butkul uzilgandik. Qamalda yashadik, ammo chidadik. 23 fevral kuni men qishloq non tsexi omboridagi oxirgi un qopini ochdim. Har bir oilaga hech kim ochdan o'lmasligi uchun ularning soniga qarab 1-2 kgdan un tarqatdik.

24 fevral kuni Agdamdagi Respublika shtabini va tegishli organlarni «dushman Sumgaiti hodisalari sanasi munosabati bilan Xojalini yo'q qilmoqchi. Operatsiya ishlab chiqilgan. Bizni qutqaring. Hech bo'lmasa ayollar, bolalarni olib chiqishimiz uchun vertolyot yuboring» deb xabardor qildik. Mazkur ma'lumotni bizga asirga tushgan arman harbiy xizmatchisi bergandi. Ogohlantirishimizga qaramay, hech qanday tadbir ko'rilmadi. 25 fevral kuni kech soat 20: 30 atrofida Xojali Xankendidagi Sovet armiyasining 366-polkiga tegishli harbiy texnika, BTR, BMP va tanklar bilan qurshab olindi. O'sha vaqtda, ya'ni 25 fevralda Xojalida kamida 3 ming kishi bor edi. Qurshab olish operatsiyasi ikki soatcha davom etdi. Kechasi 22: 30 lar atrofida o'qqa tutish boshlandi. Bunday texnikani bartaraf etadigan qurol bizda bo'lmagan. Deyarli qurolsiz edik. Boz ustiga armanlar mavqeini Agdam va Shusha tomondan o'qqa tutish lozim edi. Ehtimol, o'shanda biz vaqtdan yutib odamlarni qamal qilingan hududdan olib chiqishimiz

mumkin bo'lardi. Qochib ketishga vijdon yo'l qo'ymasdi. Biz qo'rqitib qo'yish uchun o'rab olishgan deb ham o'yladik. Faqat otishma boshlanganidan keyin bizni o'ldirishlarini tushundik. Birvarakayiga barcha qurollardan o't ochildi. O'sha lahzada yer va osmon qurollar zarbidan titrayotgandek edi go'yo. Harakatlanishning imkoni qolmadi. Dushman kuchlari qishloqni, uylarni yoqa boshladi. Milliy armiya jangchilari, militsiya xodimlari, oddiy odamlar munosib qarshilik ko'rsata boshladi. Jang ikki soat atrofida davom etdi. Qanchadan-qancha mard o'g'lonlarimiz jang maydonida qurbon bo'ldi!

– Xojalida odamlarni o'qqa tutishgan paytda Ozarbayjon televideniyesi orqali Xojalida o'qqa tutilishi oqibatida 1 kishi halok bo'lgani, yana ikki kishi jarohat olgani xabar qilindi. Ushbu yangilikni eshitganingizda o'zingizni qanday his etdingiz?

– Diqqatga sazovor tomoni shundaki, armanlar hamma narsani o'z foydasiga burib yuborgandi. Xalqimizni yo'q qilib, dunyoga aynan ular qurbonga aylanganini namoyish etishdi. Biroq biz shu ahvolda ham fojiamizni ko'rsatishni istamaymiz. Bilmaymiz, o'sha vaqtda bu fojiani yashirish kimga kerak bo'lgan. Ozarbayjon televideniya-sida Xojaliga yorib kirish chog'ida ikki kishi halok bo'lgani va armanlar chekingani haqidagi xabarni eshitib hayratlanganmiz. O'shanda Xojalida mingga yaqin kishi o'ldirilgan, 300 dan ziyod inson asirga tushgan, ikki yuzdan ziyod yarador Agdamga keltirilgan. Ammo televideniya umuman o'zgacha axborot berdi. Xojalida qolgan tirik odamlarni, ayollar, qariyalar, bolalarni qishning ayozli kunida muzlagan daryo orqali olib o'tdik. O'rmonda, qorda, tunda 10 chaqirimdan ziyod yo'l bosdik. Tong yorishganda Agdamdan 2-3 chaqirim uzoqlikda edik. Afsuski, bizga hech kim yordamga kelmadi. Biz ochiq maydonga chiqdik, kun yorishgan, o'rmon tugagandi. Harbiy texnika bilan balandlikda joylashgan armanlar bizni kutib turishgan ekan. Bizni ommaviy ravishda qirib tashlashdi. Ayollar, bolalar, qariyalar, kasallar, xullas barchani. Qurollardagi o'qlar emizikli bolalarning og'ziga to'g'rilandi. Hatto fashistlar ham bunday bo'lmagan. Bu arman fashizmi edi. Dunyoda armanlarnikidan dahshatliroq

fashizm yo‘qligi ayon bo‘ldi. Biz uni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik.

– **Tog‘li Qorabog‘da Xojali aeroport mavjud bo‘lgan yagona strategik ob‘ekt edi.**

– Aeroport hozirgi paytda armanlar qo‘lida. Xojali shunday strategik pozitsiya ediki, agar u Ozarbayjon tomonida qolganida armanlar hech qachon Qorabog‘ni egallay olishmasdi. Xojali Qorabog‘ning suyanchig‘i edi, uning hududida aeroport, temir yo‘l, shosse bo‘lgan...

– **Fojianing bosh sababchisi nima?**

– Xojali fojiasiga o‘sha vaqtda mamlakat rahbarligi uchun keraksiz, o‘ylanmagan kurash sabab bo‘ldi. Respublikada bitta prezident bo‘ladi, xalq bir kishini saylaydi, u mamlakatni aql bilan boshqaradi. Ammo, kimning kim bo‘lgani noma‘lum. Kim haqiqatni, kim yolg‘onni gapirgan, bilishmasdi. Maqsadlar noaniq. Xojali uchun aybni kimga ag‘darishni bilmaymiz...

Xojali qirg‘ini haqida yozishga qo‘l urganimda ozarbayjonlik yozuvchi Sariya Muslim qizining «Ular hech qachon ulg‘aymaydilar» nomli kitobi qalbmni larzaga keltirdi, ko‘zimga yosh to‘ldi. Ha, 63 nafar dunyoga to‘ymagan bolakay vahshiylarcha o‘ldirildi.

Ular endi ulg‘aymaydi. Ular abadiy bolalar bo‘lib qoladi. Ular – bu ozarbayjonliklar qalbidan o‘chmaydigan qayg‘u, g‘am, dard-alam, sitam. Bu dard ularning qalbiga qon bilan yozilgan. Uni endi o‘chirish qiyin.

Barcha tirik mavjudotlar kabi inson ham dunyoga keladi, yashaydi, qariydi, o‘lim sharobini tortadi. Bu Yaratgan qonuniga bo‘ysunuvchi hayot formulasi. Biroq inson ba‘zida bu formulani buzadi. O‘zini o‘zi halok qiladi, o‘z hayotini o‘zi barbod qiladi. Biz barchamiz Xudoning mahluqlarimiz, shuning uchun hech kim ota-onani, Vatanni o‘z ixtiyori bilan tanlay olmaydi. Tanlov ixtiyori Yaratganning qo‘lida. Shu nuqtai nazardan 1992 yilning 26 fevralida armanlar Xudoga qarshi bordi. Ozarbayjon Respublikasining Tog‘li Qorabog‘

hududida joylashgan Xojaliga hujum qilish orqali bu jinoyat sodir etildi. Tarix ko'plab qonli hodisalarga guvoh bo'lgan. Xojali fojiasining ayollari, qariyalari va bolalari o'z qoniga belangan holdagi dahshatlarini boshdan o'tkazish, og'riqlariga chidash insonga judayam og'ir.

Har yili 26 fevral kuni millionlab ozarbayjonliklar arman qonxo'rliigi dahshatini aks ettirgan videolavhalarini ko'rib bir seskanib oladi. Bu lavhalarini Ozarbayjon Milliy qahramoni, Qorabog' uchun janglarda professional burchini ijro etish vaqtida halok bo'lgan Chingiz Mustafaev tarix sahifalariga muhrlab qo'ydi. Biror yozuvchining mazkur kadrlarni yozma ifodalay olishi mushkuldir. Vahshiylik, qonxo'rlik manzarasi, dahshati shunchalik chuqurki, inson tasavvuri uni ifodalashga, so'z topishga ojiz.

Xojali qirg'inida 63 nafar bolalar va o'smirlar o'ldirildi. Qotillik shu qadar rahmsizlik bilan amalga oshirildiki, ushbu qirg'inga norozilik sifatida «bu bolalarning aybi nima edi?» degan savolni berish imkonsiz. Axir, go'dakda, bolada gunoh bo'lishi mumkinmi? Qonga belangan xojalilik bolalarning aybi bitta: ularning ozarbayjonligidami?!

Bu bolalar endi hech qachon qo'shiq aytmaydi, chizmaydi, she'r o'qimaydi, ertak eshitmaydi. Hech kim ularga savol bermaydi: «Katta bo'lganingda kim bo'lasan?!» Ularning ushalmagan orzularida dunyo qayg'usi ko'karadi. Odamlar, shunday qilingki, bu qayg'u ildiz otmasin!

Men – guvohman!

Sariya Muslim qizi yozadi: «1992 yilning 26 fevrali – tarixdagi eng dahshatli va shafqatsiz tunlardan biri haqida men kitobdan o‘qigan, o‘sha fojiali tunni boshdan o‘tkazgan odamlardan eshitgan emasman. Shunchaki taqdir menga oldindan belgilab bergan qo‘rqinch xolos.

Men – o‘sha fojiani guvohiman. Men – Xojali fojiasi orqali o‘tgan, o‘sha dahshatni boshdan o‘tkazgan, endi esa tirik qolganiga hayron qolayotgan, ayni paytda bundan afsuslanayotgan Xojalining baxtsiz fuqarosiman. Menda tarixga yopishib olishga va unga savol berishga kuch yo‘q. Mening faqat odamlarni chaqirishga va baqirishga kuchim yetadi xolos: «Yetadi, qon to‘kish yetarli!..»

... Balki bu shahid bolalar haqidagi birinchi kitob, birinchi entsiklopediyadir. Ammo o‘quvchi, bu entsiklopediya senga hayotning dahshatli hodisalari haqida ma‘lumot beradi xolos. Agar sen bu kitobni o‘qib yig‘lashga botinolmasang, tinching buzilmasa, o‘z bolangga, beshikda shirin orom olayotgan, tengdoshlari bilan hovlida o‘ynayotgan bolangga boq. Ular izg‘irinli tunda qorda muzlab qolishiga rozi bo‘larmiding? Agar bolalaring dom-daraksiz yo‘qolsa, o‘qqa duchor bo‘lsa, qizil qonga belansa, sen buni ko‘tara olasanmi?

